


ONA TILI

9



Sh. A. Karimova, O. A. Maxmudova

O N A T I L I

*Imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan
maktab va maktab-internatlarning 9-sinfi uchun darslik*

2-nashr

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi
vazirligi tomonidan tasdiqlagan

TOSHKENT
«NISO POLIGRAF»
2015

811.512.133(075) - Ўзбек тили

UO'K 372.881.512.133(075)

KBK 81.20'zb

0-58

к 25

Taqrizchilar: *V. S. Raxmanova*, Nizomiy nomidagi TDPU maxsus ta'lim metodikalari kafedراسi professori.
S. Turdiyeva, Toshkent shahar 25-sonli maxsus maktab o'qituvchisi.


**Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari
hisobidan chop etildi**

Ona tili. Imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalarining 9-sinfi uchun darslik. 2-nashr/Sh. Karimova, O. Maxmudova – T.: «Niso Poligraf» nashriyoti, 2015. – 128 b.

UO'K 372.881.512.133(075)

KBK 81.20'zb

ISBN 978-9943-4317-8-2



© Sh. Karimova, O. Maxmudova, 2015-y.

© «Niso Poligraf» nashriyoti, 2015-y.

HD 44096
391



Muhammad Yusuf

XALQ BO‘L, ELIM

Qadim yurtga qaytsin qadim navolarim,
Qumlar bosib qurimasin daryolarim,
Alpomishga alla aytgan momolarim
Ruhini shod etay desang – xalq bo‘l, elim!...

Dunyoga boq, qaddi sendek kim bor yana,
Dovrug‘i ham dardi sendek kim bor yana,
Xalq bo‘lishga haddi sendek kim bor yana,
Moziyni yod etay desang – xalq bo‘l, elim!...

Sen tebratding beshigini Sohibqiron,
Sening bolang yulduzlarga qo‘ygan narvon,
Bir mayizni qirqqa bo‘lgan bir tan-u jon
Kunlaringga qaytay desang – xalq bo‘l, elim!...

She‘rni ifodali o‘qing. Ko‘chiring.

TAKRORLASH

UYUSHIQ BO'LAKLI GAPLAR

1-mashq. O'qing. Uyushiq bo'lakli gaplarni topib ko'chiring. Uyushiq bo'laklar orasiga vergul qo'ying.

BILASIZMI?

Baliqlar ob-havoda bo'ladigan o'zgarishlarni juda yaxshi sezadilar. Ko'pdan beri akvariumda yashab kelayotgan vyun goles lin baliqlari havoning avzoyi o'zgara boshlashi bilan bezovtalanadilar. Baliqlar to'fon momaqaldiraq bo'ron bo'lishini oldindan yanglishmay aytib beradilar.

2-mashq. O'qing. Uyushiq bo'laklarni aniqlang. Qanday bo'laklar uyushib kelganini ayting.

MUSICHALAR VA QUMRILAR

Musichalar va qumrilar
Yashaydilar bitta bog'da.
Nozik-nozik, mayin-mayin
Qo'shiqlaring – sayrashlaring
Juda-juda ko'nglim xushlar
Ko'klam-u yoz, kuz chog'ida.

3-mashq. «O'qish kitobi»dan 2 ta uyushiq bo'lakli gap topib yozing. Qanday gap bo'lagi uyushib kelishini ayting.

4-mashq. *O'qing. Uyushiq bo'laklarni aniqlang.*

TABIAT HODISALARI

Tabiatda doimo o'zgarishlar bo'lib turadi. Quyoshdan nur taraladi, osmonda chaqmoq chaqnaydi, yomg'ir yog'adi, yer bag'ridan o'simlik unib chiqadi va o'sadi. Tabiatda shamolning paydo bo'lishi, esishi, daraxtdan olmaning uzilishi va yerga tushishi, kunning isishi yoki sovishi, yil faslining o'zgarishi kabi hodisalar tabiat hodisalariga kiradi.

5-mashq. *She'rni ifodali o'qing. Uyushiq bo'laklarni aniqlang.*

P. Mo'min

NE DEGANI IMONLI?

Ne degani
Vijdonlig-u imonli?
Bir odati:
Undan chiqmas yomonlik.

Asosiysi:
Bo'ladi ul eng halol.
Bag'ri kengdir,
Yurar bosiq, bermalol.

Nur yog'ilib
Turar yuzi, ko'zidan.
Bilsa bo'lar
Muomala, so'zidan.

Halol yashar,
Halol ishlar, halol yer,
Undaylarni
Eng imonli deyaver.

QO'SHMA GAP.

Qo'shma gaplarning *ammo, lekin, biroq*
bog'lovchilari bilan bog'lanishi

6-mashq. *O'qing. Qo'shma gaplarning yozilishiga diqqat qiling.*

TABIATNI ASRAYLIK

Inson tug'ilib, yorug' dunyoga kelgan kunidanoq tabiat ehsonidan bahramand bo'ladi va havodan nafas oladi. Tabiat musaffo bo'lsa, xalq ham sog'lom bo'ladi, shuning uchun har birimiz tabiatni, hayvonot dunyosini, dov-daraxtlarni, gilyohlarni asrashimiz kerak.

7-mashq. *Va, ammo, lekin, biroq, shuning uchun bog'lovchilari ishtirokida gaplar tuzing va yozing.*

8-mashq. *O'qing. Tinish belgilarni qo'yib ko'chiring.*

1. Aziz yoshligidanoq sportni jon dildan sevar edi shuning uchun u sport mashg'ulotlariga ishtiyoq bilan qatnashardi.
2. Aziz marraga birinchi bo'lib yetib keldi biroq uning raqibi Zafar esa biroz orqada borardi. 3. Sattor go'yo eshitmaganday undan uzoqlashib ketmoqchi bo'ldi-yu lekin Ne'mat yana bir bor qattiq chaqirib uni to'xtatdi.
4. Birinchi mukofot Azizga berildi shuning uchun men uning bugungi mahoratiga yana bir marta qoyil qoldim.

9-mashq. *O'qing. Gaplarning chegarasini aniqlang. Qanday gaplar borligini ayting.*

QUSHLAR BIZNING DO'STIMIZ

Qushlar bahorda tinmay harakat qilib, o'zlariga in yasaydilar bolalar ham qushlar uchun daraxtlarga in yasab qo'yadilar qushlar bu inlarga tuxum qo'yib bola ochadilar o'quvchilar qushlarga g'amxo'r bo'ling qushlarning inini buzmang.

10-mashq. Gaplarni o'qing. Chiziqlar o'rniga kerakli bog'lovchilarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.


1. Hozirgi paytda Yerdan boshqa barcha sayyoralarda hayot yo'qligi ma'lum, _____ ularda hayot uchun zarur sharoit mavjud emas. 2. Ba'zi sayyoralarni bevosita Yerdan asbobsiz kuzatish mumkin, _____ ham ularni qadimgi vaqtda odamlar bilgan. 3. Oy o'zidan nur chiqarmaydi, _____ u quyoshdan tushayotgan nurlarni qaytaradi. 4. Kunlar o'tishi bilan Quyosh botgan paytda Oy ufqdan balandlashadi _____ tez kunda yangi Oy bo'lib ko'rinadi. 5. Oyning sirti pasttekislik, tepalik, chuqurlik va tog'lardan iborat, _____ unda havo, suv bo'lmaganligi tufayli hayotdan asar ham yo'q.

Qo'yish uchun so'zlar: va, lekin, biroq, shuning uchun, chunki.

11-mashq. Topishmoqlarni o'qing. Javobini topib yozing.

1. Pastakkina bo'yi bor,
Malla bo'zdan to'ni bor.
2. Pishirsang osh bo'lar,
Pishirmasang qush bo'lar.
3. «Teg, teg!» desam tegmaydi,
«Tegma» desam tegadi.

12-mashq. Rasmlarni nomlang va yozing. So'zlarni qatnashtirib gaplar tuzing.



13-mashq. She'ni o'qing. Husnixatga rioya qilgan holda she'ni ko'chirib yozing.

A. Po'latov

OLA MUSHUK

Qora mushuk,
Ola mushuk!
G'ayrati zo'r,
«Balo» mushuk.

Tongda turar,
Tinmay, yurar.
Bet, qo'l yuvib,
Yungin tarar.

Juda hushyor,
Ovga tayyor:
Sichqon ko'rsa,
Qo'ymas zinhor.

Kutib bir dam,
Sakrar ildam.
Tutib olar,
Gar qochsa ham!

Mushuk

14-mashq. *She'rni o'qing va ko'chiring.*

P. Mo'min

ERTALABKI ASSALOM

Ertalabki assalom
Xosiyatli batamom.
Musaffodan musaffo,
Dilga bag'ishlar shifo.

Yayratadi ko'ngilni,
Ochadi g'uncha-gulni.
Eshitgan, aytganga ham
Zavq beradi chinakam.

Ertalabki assalom
Doimo etsin davom.

15-mashq. *So'zlarni o'qing va yozing. 2 ta gap tuzing.*

Oftob, qog'oz, xalq, oq, beg'ubor, bug'doy, nur, pokiza, asal, ona, yurak, O'zbekiston, Istiqlol, Humo, davr, odam.


16-mashq. *O'g'il bolalar va qiz bolalar ismini toping. Ular ishtirokida 4 ta gap tuzing.*

17-mashq. *Matnni o'qing va ko'chirib yozing.*

ONA YURTING – OLTIN BESHIGING

Vatanni oq sut bergan onaga qiyos qilishadi. Ona-Vatan, deb mehr bilan aytishadi.

Bilasizmi, bolajonlar? Siz dunyoga kelmay turib ota-onangiz sizga beshik yasashni orzu qiladilar. Tol ekadilar. Toldan chiroyli beshikcha yasaydilar.



Tilla beshikchangiz – dastlabki Vataningiz bo'ladi.

18-mashq. *O'qing shu so'zlar ishtirokida gaplar tuzing va yo'zing.*

Pilla, tilla, muddat, modda, yovvoyi, dovuchcha, novvot, mitti, ikki, g'alla, g'ijjak, mahalla, kakku, gripp, rassom, arra, zarra, parranda, g'alla, salla.

G'ijjak

19-mashq. *Maqollarni o'qing va ko'chiring.*

1. Yaxshi – qand yedirar,
Yomon – pand yedirar.
2. Yaxshini ko'rib fikr qil,
Yomonni ko'rib shukr qil.
3. Do'stga aytdim so'zimni,
Dushman bildi sirimni.

4. Do'st boshga boqar,
Dushman oyoqqa boqar.
5. Ilonning tishi yumshoq bo'lsa ham, ichi zahar.
6. Yetti o'lchab, bir kes.

20-mashq. «O'zbekiston – mening Vatanim» mavzusida bayon yozing. Bayoningizda quyidagi reja va maqollardan foydalaning.

Reja:

1. O'zbekiston – mening Vatanim.
2. O'zbekistonning go'zal shaharlari.
3. O'zbekistonning bog'lari.
4. Men Vatanimni sevaman.

Maqollar

1. Vatan ostonadan boshlanadi.
2. Vatan – ona,
Ostonasi oltin.
3. Ona yurtim,
Oltin beshigim.

21-mashq. O'qing va ko'chirib yozing.

Menda bor bir qo'zichoq,
Hamrohimdir ovunchoq.
Dala, qirda boqaman,
O'tli yerda boqaman.

(M. Turobov)

22-mashq. *O'qing. Gap va so'zlarni husnixat qoidasiga rioya qilgan holda yozing.*

1. Biz Vatanni sevmog'ni dono **bobolarimizdan** o'rganmog'imiz kerak. 2. **Vatan** ona kabi yagonadir. 3. Vatan **ona** tuproqdan boshlanadi. 4. **Toshkent** eng go'zal, **obod**, ulkan shaharlardan biridir. 5. Qodir akaning o'g'lidan **ko'ngli** to'q. 6. **O'qituvchi Azizni** doskaga chiqarib masala berdi.

23-mashq. *O'qing va ko'chirib yozing.*

O'. Qo'ldoshev

KAMALAK

Shamol quvlab bulutni,
– Yur, – deb yo'lga boshladi,
Bulut injiq bir bola,
Yig'lab ko'zin yoshladi.

Quyosh bobo jilmayib,
Nurin sochdi eliga,
Atlas belbog' bog'ladi
Yig'loq bulut beliga.

24-mashq. *She'rni o'qing, ko'chiring.*

A. Akbarov

BAHONA

– Ma'rab qoldi ona qo'y,
Ma'rab qoldi qo'zichoq.
Ichib bo'lgach choying,
Suv berib chiqqin, Uzoq!

– Oyijonim, ularga,
Keragi yo'q qarashning.
Qo'zichoqqa ona qo'y,
O'rgatyapti ma'rashni.

25-mashq. *O'qing. Quyidagi so'zlar ishtirokida gaplar tuzing va yozing.*

Sandiq, kosa, osmon, tovus, o'sma, gilos, uzum, uzuk, g'o'za, ko'za, zumrad, dazmol, hovuz, zanjir, yalpiz.

Yalpiz

26-mashq. *Quyidagi rasmdan foydalanib, kuzatishlaringiz asosida «Kuzda» sarlavhali hikoya tuzing. Hikoyangizni berilgan reja asosida bayon eting va yozing.*

Reja:

1. O'lkamizda kuz fasli.
2. Kuzda ob-havoning o'zgarishi.
3. Yomg'ir yog'di.



27-mashq. *She'rni ifodali o'qing va ko'chiring.*

M. Qodirov

ENG YAXSHI SOVG'A

O'n yoshga to'ldi bugun
Kenjatoy ukam To'lan.
Do'stlari qutlar uni
Tug'ilgan kuni bilan.

Alisher kitob berdi,
Surati rangli nuqul.
Nor sovg'a qildi koptok,
Bahodir bir dasta gul.

Gullarni quchib ukam,
Shodlanar, to'ymay ko'zi.
Do'stinga deb Bahodir
O'stirgan ekan o'zi.

28-mashq. *Berilgan so'zlardan gaplar tuzing.*

Sветофор, yashil, qizil, sariq, chiroq, yo'l harakati,
mashina, to'xtash joyi, o'tish joyi, chorraha.

29-mashq. *O'qing. Gaplarning chegarasini aniqlang va yozing.*

MAY YOMG'IRI

Botirjonning otasi fermer xo'jaligida ishlaydi u fermer xo'jalik yeriga pomidor, piyoz va ko'katlar ekadi bir kuni otasi chopiq qilayotgan paytda osmonni qora bulut qopladi chars-churs chaqmoq chaqdi momaqaldiroq gumburladi sharros yomg'ir yog'di.

30-mashq. *O'qing va gaplarni ko'chiring.*

SO'ZANALAR

Buxoro so'zanalarida otlar tasviri ko'p uchraydi. Farg'ona chevarlari tikkan so'zanalar bejirim guldastalar, yaproqlar tasviri bilan boshqa hududlar so'zanalaridan farq qiladi. Toshkent so'zanalarida esa ko'proq doira shaklidan foydalaniladi.

31-mashq. *Gaplarning yozilishiga diqqat qiling va ko'chiring.*

1. Shu payt Adhamni opasi chaqirib qoldi. 2. Bekin-machiq o'yini qizigandan qizidi. 3. Kattalarning gapiga quloq solish kerak edi. 4. Kechga yaqin Valining qorni og'riy boshladi.

32-mashq. *So'zlarni o'qing. Shu so'zlardan foydalanib, gaplar tuzing.*

Daraxtlar, gullaydi, kurtaklar, hasharotlar, qurbaqalar, uyg'onadi, mart oyi, laylak, jibljibon.

33-mashq. *O'qing, qo'yish uchun so'zlardan foydalanib, gaplar tuzing va yozing.*

1. O'zing bilasan hech kimdan kamchiligim yo'q, _____ mehnat qilib o'rganganman. 2. «Mehnatning tagi rohat» – deganlar, _____ ham doimo mehnatni qadrlayman. 3. Osmonning avzoyi buzuq edi, _____ kuz shamoli tinmay esardi.

Qo'yish uchun so'zlar: *lekin, shuning uchun, chunki.*

34-mashq. «Kitob– bilim manbai» mavzusida hikoya tuzing. Hikoyangizni berilgan reja asosida bayon eting va yozing.

Reja:

1. Men sevgan kitob.
2. Kitobim – oftobim.
3. Kitob – bilim manbai.

35-mashq. Hikoyani o'qing. Hikoyaga reja tuzib, daftaringizga ko'chirib yozing.

BODOM GULLARI

Bahor fasli. Bodomlarning ayni qiyg'os ochilgan chog'i. Bodom gullarining sho'x-shodon kulgulari eshitila boshladi.

– Singiljon! Qara, hammayoq oppoq gullarga burkanibdi, – dedi qiyg'os gul.

– Ha-ya, biram chiroyliki, yonimdagi bodomoyga qarang-a, hamma o'rtoqjonlarimiz ochilib ketishibdi-ku! – dedi sevinib yulduz gul.

Bodom gullarining suhbatı uzoq cho'zildi. Ular biram quvnoq, biram shod edilarki, bu yil opa-singillarining ko'pligidan quvonishar edi. Chunki, ertadan «meva tugunchakni boshlaymiz», – deyishgan edi-da!

Yomg'ir kechgacha yog'ib hammayoqni jiqqa ho'l qilib bo'ldi.

Yomg'ir tingach, hamma gullarni ivitib, ularning ko'zlariga yomg'ir suvi to'lib ketgan edi.

Shu payt shamoloy yordamga yetib kelib, asta bodom shoxlarini yelpidi. Barcha gullarni ko'zidagi suv tushib ketdi. Bodom gullari asta ko'zlarini ochdilar.


–Rahmat senga, shamoloy, o‘z vaqtida yetib kelding, bo‘lmasa biz gullar hosilga kirolmas edik, – deyishdi bodom gullari.

Oftob ham nur socha boshladi. Bodom gullari sevinib quvnab, meva tugishga kirishdilar.

36-mashq. *Test savollariga to‘g‘ri javob toping va belgilang.*

TESTLAR

1. Halima xola murabbo qilish uchun bozordan ..., ... olib keldi.
A. Kartoshka, olma.
B. Olxo‘ri, olcha.
D. Limon, pomidor.
2. Quyonlarni har kuni ..., ... berib boqamiz.
A. Beda, sabzi
B. Don, olma
D. Piyoz, bodring.
3. Olmalar ... pishibdi.
A. Qip-qizarib
B. Qorayib
D. Sarg‘ayib.
4. Shu payt Kamol olma yig‘gisi keldi-yu, ... kichik bo‘lgani uchun daraxtga chiqolmadi.
A. Ammo
B. Shuning uchun
D. Lekin.
5. Ancha vaqtgacha shu tariqa yotdi, ... bironta olma uning og‘ziga tushmadi.
A. Va
B. Lekin
D. Shuning uchun.



SO‘Z TARKIBI

O‘ZAK VA O‘ZAKDOSH SO‘ZLAR

1-mashq. *Ko‘chiring. O‘zakdosh so‘zlarning o‘zak qismini aniqlab, namunadagidek belgilang.*

N a m u n a: *Bog‘bon, bog‘li, bog‘siz.*

G‘allakor, qarddon, kuchsiz, yo‘lchi, sutchi, yo‘ldosh, ishchi, ovla.

O‘zakdosh so‘zlar ishtirokida, ikkita gap tuzing.

O‘zaklari bir xil bo‘lgan so‘zlar **o‘zakdosh so‘zlar** deyiladi. O‘zakdosh so‘zlarning umumiy qismi **o‘zak** deb nomlanadi. Masalan: *gulchi, gulli, gulsiz, gulla.*

2-mashq. *O‘qing. O‘zakdosh so‘zlarni topib, yonma-yon ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar ishtirokida bittadan gap yozing.*

Qarddon, o‘quvchi, kitobsiz, qadrli, so‘zla, guldor, uquvsiz, kitobxon, guldon, so‘zsiz.

O‘zaklarni belgilang.

Kitobxon

3-mashq. *O‘qing. O‘zakdosh so‘zlarni aniqlab, ko‘chiring va o‘zakni belgilang.*

1. Befoyda so‘zni ko‘p aytma,
Foydali so‘zni ko‘p eshitishdan qaytma.
2. Ilmsiz – bir yashar,
Ilmli – ming yashar.

3. Odobli, tartibli, tarbiyali bola o'zini ko'chada ham, uyda ham yaxshi tutadi. Odobsiz bolalar ko'chada betartib yuradilar.

4-mashq. *Gaplarni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning o'zagini namunadagidek belgilang.*

N a m u n a: *O'zbekiston.*

1. Kitob aql chirog'i, kitob – **bebaho** boylik.

2. Tanishaylik: men – kitob,
Asl bilimlarga kon.
Boylik beray behisob,
Bo'lsang agar **qadr**don.

3. Tilga **ixtiyorsiz**, elga **e'tiborsiz**.

4. **Tejamlilik** – yaxshi odat.

5-mashq. *Nuqtalar o'rniga qo'shimchalardan mosini qo'yib, so'zlarni yozing.*

Tuz..., ish..., toza..., kitob..., o't..., yo'l..., bog'..., kuch..., suv..., oq..., Vatan..., sinf....

SO'Z YASOVCHI QO'SHIMCHALAR

6-mashq. *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar tarkibidagi so'z yasovchi qo'shimchalarni aniqlab ayting.*

1. Ortoqlaringizga mehribon va **e'tiborli** bo'ling.
2. Ilmni **mehnatsiz** egallab bo'lmas. 3. Ko'p o'yla, oz so'zla. 4. Alla tinglagan bola **odobli**, **aqlli** bo'ladi, **yoqimli** qo'shiqlar ohangini tez o'rganib oladi. 5. Rostgo'y odam **bexavotir** bo'ladi. **Yolg'onchining** esa halovati yo'qoladi. 6. **Yolg'onchining** gapiga hech kim ishonmaydi, uni odamlar hurmat qilmaydilar.

7-mashq. *-chi, -la, -li, -siz, -chan qo'shimchalarini qo'shib so'zlar hosil qiling, o'zakni belgilang.*

O'zakka qo'shilib, yangi ma'noli so'z hosil qiladigan qo'shimchalar **so'z yasovchi qo'shimchalar** deyiladi.

Masalan: *gulzor, mevali, O'zbekiston.*

-chi, -la, -li, -siz, -chan, -zor, -kor, -don, -bon, -iston kabi qo'shimchalar **so'z yasovchi qo'shimchalardir.** Bunday qo'shimchalar yordamida yasalgan so'zlar **yasama so'zlar** deyiladi.

8-mashq. *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar tarkibidagi so'z yasovchi qo'shimchalarni aniqlab ayting.*

1. Vaqtni tejash **tejamkorlikni** bildiradi. 2. Vaqt faqat insonlar uchun **qadrli** bo'lmay, balki hayvonlar, qushlar, hatto hasharotlar uchun ham qadrli. 3. Eng **yoqimli** hid – non hidi. 4. Nonni **qadrlagan**, elni **e'zozlaydi**. 5. Uy-ro'zg'orda **tejamkor** bo'lish insonning farovon yashashini ta'minlaydi. 6. **Tadbirkor** kishilar daromad olish uchun mehnat qiladilar va izlanadilar.

9-mashq. *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlardagi qo'shimchalarni belgilab ko'rsating.*

N a m u n a: Paxtakor.

1. Alisher bilan Bahrom **sinf-dosh** do'stdir. 2. Azizning otasi **oshpaz** bo'lib ishlaydi. 3. Muhabbat **mehribon** qiz. 4. Jamol va Avaz «**Paxtakor**» stadioniga borishdi. 5. O'quvchilar **yozuvchilar** bilan uchrashishdi. 6. Bahorda **bog'bon** va dehqonlarning ishlari qizg'in bo'ladi.

10-mashq. *Quyidagi so'zlarga so'z yasovchi qo'shimcha qo'shib, o'zakdosh so'zlarni hosil qiling. O'zakni belgilang.*

Ilm-, insof-, iroda-, aql-, Vatan-, g'iybat-, o'quv-, xabar-, kuch-.

11-mashq. *Paxta, g'alla, gul, meva so'zlariga so'z yasovchi qo'shimchalardan mosini qo'shib, yangi so'zlar yasang va yozing. So'zlardan ikkita gap tuzing.*

SO'ZLARNI O'ZARO BOG'LOVCHI QO'SHIMCHALAR

12-mashq. *O'qing. So'zlarning o'zaro bog'lovchi qo'shimchalarni belgilang.*

ONA VATANIMIZ BILAN FAXRLANAMIZ

Dunyoda mamlakatlar, shaharlar ko'p. Lekin inson uchun tug'ilib o'sgan joyi – ona-Vatan hammasidan ham aziz va mo'tabardir.

Biz yashayotgan go'zal, bepoyon mamlakat O'zbekiston deb ataladi. Mamlakatimizda zavod va fabrikalar, ko'rkam binolar, bog'lar ko'p. Ularning hammasi xalq uchun xizmat qiladi.

Gapda so'zlarni bir-biriga bog'laydigan qo'shimchalar **so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalar** deyiladi.

Otlarga qo'shiladigan **-ning, -ni, -ga, -da, -dan,** qo'shimchalari, fe'llarga qo'shiladigan **-m, -man, -ng, -ngiz, -k, -miz** kabi qo'shimchalar **so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalardir.** Masalan, Men **gullarga** suv quydin.

13-mashq. *O'qing. So'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalarni aniqlab, tagiga chizing.*

O'LJA

Qorni ochib gezarib,
Rangi-ro'yi bo'zarib,
Sichqon kirdi teshikdan,
Balki oldi eshikdan.
Shundoq qo'shni omborda
Donga to'la qop bor-da.

Tatib ko'rdi bir boshdan
Bug'doy, makka va moshdan,
Qorni to'yib, kekirib,
Shod bo'lib, tomoq qirib.
Yaqin keldi eshikka,
Sig'may qoldi teshikka.

O'lja bo'ldi shu mahal,
Shop mo'ylovli mushukka...

14-mashq. O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ko'chirib, so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalarni belgilang.

1. **Yolg'onchining so'zidan emas,**
Ko'zidan bil.
2. **Vaqtни to'sadigan kuch yo'q.**
3. **Otangni kaftingda tutsang,**
Onangni boshingda tut.
4. **Onadan ko'zi to'ygan odam yo'q.**
5. **Onaning mehri – muqaddas.**

15-mashq. O'qing. So'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimcha olgan so'zlarni chap tomonga, so'z yasovchi qo'shimcha olgan so'zlarni o'ng tomonga ustun shaklida yozing.

Bozorni, odobli, o'g'liga, quvonchli, O'zbekiston, oynaning, suzuvchi, sinfdosh, maktabni, uchuvchi, paxtazor, g'allazor, mamlakatda.

16-mashq. *O'qing. Nuqtalar o'rniga so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

1. U tong... shivir-shiviridan uyg'onib ketdi. 2. Terimchi qizlar egatlar bo'ylab javohir... yig'ishga kirishdilar. 3. Soli aka oldin qo'limdagi tugun..., so'ng kampir... qo'lidagi to'rva... oldi. 4. Vaqt... qadrsiz o'tishiga yo'l qo'ymang. 5. O'qituvchi Yodgor... doskaga chiqardi. 6. Yodgor viqor bilan o'rnidan turib, doska... oldiga keldi va she'r o'qiy boshladi.

17-mashq. *O'qing. Test savollarini yeching.*

1. O'zaklarning belgilangan qatorini toping.

- a. odobli, baxtli, guldon
- b. mehnatdan, ishdan, suvga
- d. O'zbekiston, bog'bon, ishchi.

2. So'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalarni toping.

- a. -li, -siz, -ga, -da.
- b. -ning, -ni, -ga, -da, -dan.
- d. -bon, -don, be-, ser-.

18-mashq. *O'qing, ajratib ko'rsatilgan so'zlarni o'qing. So'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalarni belgilang.*

BILASIZMI?

Ipak matolar **pilladan** olingan tolalardan to'qiladi. Jun matolar esa qo'y-qo'zilar, echki, tuya kabi hayvonlarning

junidan olingan iplardan tayyorlanadi. Shuningdek, sun'iy tolalardan ham matolar to'qiladi. Bo'z, doka, chit, satin va boshqa matolar paxta tolalardan to'qiladi. Paxta, **ipakdan** qilingan matolar ancha qimmat bo'ladi. Ular inson salomatligi uchun foydalidir.

19-mashq. *She'rni o'qing va unga sarlavha qo'ying. So'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchasini olgan so'zlarni topib, belgilang.*

A. Po'latov

Shokoladni yer edi,
Nodir og'zin to'ldirib.
Yana og'ziga tiqdi,
Mehmonlarni kuldirib.

Xijolatda oyisi,
Ne qilishin bilmadi.
Juda uyalganidan,
Axir o'yib, imladi.

– Himm..., – dedi u g'uldirab,
Og'zin ocha boshladi,
– Nega o'yasan, – deya, –
Yig'lab qocha boshladi.

20-mashq. *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlardan so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchani namunadagidek belgilang.*

N a m u n a: O'zbekistonda.

O'zbekistonda kuz faslining boshlarida kun issiq bo'ladi. **Havoning** salqinligi, ayniqsa ertalab sezilib turadi. Kuz boshlanishi bilan dala va bog'lar kuz **libosini** kiyib, rang-barang tus oladi, **ariqlarning** suvi tiniqlashadi. **Kuzda**

shamol g'ir-g'ir esib turadi. **Bog'larda** kuzgi mevalar pishib yetiladi. **Paxtazorda** paxtalar oppoq bo'lib ochiladi. Dala va **bog'larda** ish qizg'in bo'ladi.

21-mashq. *Berilgan so'zlarni so'z tarkibi jihatdan namunadagidek tahlil qilib yozing.*

N a m u n a: *Sinfdosh.*

Do'stning, bog'bon, tuzsiz, gulzorda, serhosil, serunum, paxtazor.

22-mashq. *Maqollarni o'qing, so'z yasovchi va so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalarni toping va ularni belgilang.*

1. Maqsad sari intilish – mardning ishi,
Maqsadsiz yashash – nodonning ishi.
2. Tabiat – ona, mehribon va saxiy,
Uni avayla, e'zozla boqiy.
3. Tadbir bilan mushkul ish oson bo'lar,
Tadbirsizning holi tang bo'lar.

23-mashq. *Berilgan so'zlarni so'z tarkibi jihatdan namunadagidek tahlil qiling.*

Ishchilar: **ish** – o'zak; **-chi** – so'z yasovchi qo'shimcha; **-lar** – ko'plik qo'shimchasi.

Foydali, odobli, ilmi.

Savol va topshiriqlar

1. O'zak nima? O'zakdosh so'zlar-chi?
2. Qanday qo'shimchalar so'z yasovchi qo'shimchalar deyiladi? Misollar ayting.
3. Qanday qo'shimchalar so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalar deyiladi? Misollar ayting.

SO‘Z TURKUMLARI

Bizning nutqimiz **gaplardan**, gaplar **so‘zlardan** tuziladi.

Har bir so‘z ma‘lum **so‘z turkumiga** oid bo‘ladi.

Ot, sifat, son, olmosh, fe‘l, ravish so‘z turkumlaridir.

1-mashq. O‘qing. So‘zlarni quyidagi tartibda ko‘chiring: Ot, sifat, son, olmosh, fe‘l.

AVSTRIYA

Yevropaning qoq markazida joylashgan bu mo‘jazgina mamlakat 84 ming kv. km. maydonni egallaydi. Aholisi 8 milliondan sal oshadi. Poytaxti – Vena shahri.

Venadagi me‘moriy obidalar, muzeylar, ko‘hna saroy va qasrlar, istirohat bog‘lari o‘ziga xosligi bilan e‘tiborni jalb qiladi.

Bu go‘zal diyorda Motsart, Betxoven, Shubert, Shtraus, Brams kabi mashhur kompozitorlar sozandalar yashab, ijod qilganlar.

2-mashq. Ko‘chiring. Maqollarni o‘qib, mazmunini tushuntiring. So‘roqlar yordamida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni qaysi so‘z turkumiga kirishini aniqlang.

Vatani borning baxti bor,
Mehnati borning – taxti.

Aybiga iqrор – **mard** kishi,
Yashirmoq – **qo'rqoq** ishi.

Ko'p yurgan ko'p ko'rar,
Ko'p o'qigan ko'p uqar.

Yolg'onchining **bahonasi** ko'p.

3-mashq. *O'qing. So'roqlar yordamida ot, sifat, fe'llarni aniqlang.*

Tursunboy Adashboyev

ESKI BO'LIB QOLADI

Dilshod yangi tufisini,
Nimagadir kiymaydi.
Yalangoyoq yurar doim,
Balki ko'zi qiymaydi.
– Bor, tuflingni kiyib ol,
Bunday yurish g'alati.
– Tog'a, uni kiysammi,
Eski bo'lib qoladi...

4-mashq. *O'qing. So'zlarga qarama-qarshi ma'noli so'zlar toping va yozing.*

Yaxshi, yosh, yangi, baland, to'g'ri, mayda, oq, yolg'onchi, chiroyli, quvnoq, katta, mahkam.

5-mashq. *O'qing. So'roqlar yordamida so'z turkumlarini aniqlang. Topishmoqlarning javobini ayting.*

QANI, TOPING

1. Osmonda o'nta yulduz,
Endi quloq sol Qunduz.
Yashirindi beshtasi,
Ayt-chi, qoldi nechtasi?

2. Hil-hil pishib	Yebdi kecha.
Oq shaftoli,	Oyim menga
Shoxda turar	Berdi beshta,
Toq shaftoli.	Qani toping
Usmon to'rtta,	Qoldi nechta?

6-mashq. *She'rne ifodali o'qing. Ot, sifat, son, fe'lni topib va ushbu so'z turkumlariga, savol bering.*

P. Mo'min

UMID BILAN YASHAR BOBOM

Mening to'qson yashar bobom,
 Umid bilan yashar bobom.
 Orzulari hali katta,
 Yuzga kiray deb, albatta.
 Yaxshilikni izlaydilar,
 Bobolarin eslaydilar.
 Hunarlari ekan kulol,
 Yashabdilar doim halol.
 Hunarimni qilgin davom,
 Gapirarlar menga bobom.


7-mashq. *«O'qish kitobi»dan so'z turkumlariga oid beshtadan so'zlar toping va jadvalni to'ldiring.*

Ot	Sifat	Son	Fe'l
Kim?	Qanday?	Nechta?	Nima qildi?
Nima?	Qanaqa?	Qancha?	Nima qilyapti?

8-mashq. *Quyidagi rasmdan foydalanib, kuzatishlaringiz asosida «Bog'da» sarlavhali hikoya tuzing. Hikoyangizni berilgan reja asosida bayon eting va yozing.*

Reja:

- 1. Bizning bog'.*
- 2. Bog'da mevalar pishdi.*
- 3. Mehnat – mehnatning tagi rohat.*



OT – SO‘Z TURKUMI

9-mashq. *O‘qing. Narsa va shaxslarni bildirgan so‘zlarni toping va ularga so‘roq bering.*

Meva, do‘st, inson, paxta, kashfiyotchi, kiyim, adabiyotshunos, sinfdosh, kema, muz, ko‘zmunchoq, belbog‘, ko‘z-oyinak.

Avval shaxslarni, keyin narsalarni bildirgan so‘zlarni yozing.

Predmet nomini bildirib, *kim?, kimlar?, nima?, nimalar?* so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar *ot* deyiladi. Masalan: *Munisa, o'qituvchi, cho'pon, qalam.*

Otlar **birlikda** (bola) va **ko'plikda** (bolalar) qo'llaniladi:

Kishilarning ismi va familiyasi: *Karimov O'ktam*; hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar: *Mosh, Malla*; shahar: *Toshkent*; qishloq: *Zarkent*; daryo: *Norin*; ko'cha: *Fitrat* ko'chasi nomlari bosh harf bilan yoziladi.

10-mashq. *Hikoyani o'qing. So'roq yordamida otlarni aniqlang. Otlarning nima uchun bosh harf bilan yozilishini tushuntiring.*

ALISHERNING ZUKKOLIGI

G'iyosiddin Kichkina ertalab o'g'li bilan suhbatlashib o'tirardi. Mahram kirib keldi. G'iyosiddin unga «Tut» – dedilar. Mahram hayron bo'lib, o'ng-u chapga qaradi.

– Tut keltiring, hazratim tut yemoqchilar, – izoh berdi yosh Alisher.

Tut pishig'i edi. G'iyosiddin suyukli zukko o'g'li Alisher bilan tut yemoqchi edi.

11-mashq. *Gaplarni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering.*

1. Maktabimiz bog'ida mevali **daraxtlar** juda ko'p.
2. Ilmsiz **inson** mevasiz daraxtga o'xshaydi. 3. **Kapalak** uchib boshqa gulga qo'ndi. 4. Hovuz bo'yida katta **daraxt** o'sardi. 5. Qurilishga **suvoqchilar, duradgorlar** kelishdi.
6. Maktab bog'ida **atirgullar** ochilgan.

12-mashq. *O'qing. Nima? so'rog'iga javob bo'lgan otlarni ko'chirib yozing.*

R. Mamadaliyev

VATANIM

Uyim, hovlim, ko'cham ham,
Maktablar-u, bog'cham ham –
O'sha mening Vatanim.

Porlayotgan quyosh ham,
Dala, qir, tog'-u tosh ham –
O'sha mening Vatanim.

13-mashq. *O'qing. Bosh harf bilan yozilgan so'zlarni ko'chiring. Ularning nima uchun bosh harf bilan yozilganligini izohlang.*

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng xalqimizning boy madaniy, ma'naviy merosidan bahra ola boshladik. Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Amir Temur, Ulug'bek kabi ajdodlarimizning bizga qoldirgan o'lmas meroslarini o'rganib, ular bilan faxrlana boshladik.

14-mashq. *O'qing. Otlarni toping va savol bering. Otlarning tagiga chizing.*

A. Po'latov

BASTAKOR YUNUS BOBO

Bastakor Yunus bobo,
Navolari dilrabo!
Xalqqa qildilar xizmat,
Xizmatda-ku ko'p hikmat.

Kuylaganda «Shashmaqom»,
Dillarga berar orom.
Undagi usul, kuylar,
Uzoq o'tmishdan so'ylar:

Xalqlarning ohu zori,
Og'ir kun, intizori.
Barcha nolalar ayon,
Unda etilgan bayon.

15-mashq. *O'qing. Atoqli otlarni topib, ularni belgilang.*

M. Qodirov

KIM TUZLANDI?

Shoshib so'zlar Oynisa:
– Oyim tuzladi rosa!
– Kim tuzlandi! Alimi,
Bahodirmi, Valimi,
Balki Bahrom, balki Nor?. . .
– Yo'q, tuzlandi pomidor!

16-mashq. *O'qing. Kim?, kimlar?, nima?, nimalar?
so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni topib, ularni belgilang.*

UZUMLAR

Ishkomdagi g'ujum-g'ujum uzumlarning qip-qizarib turganini ko'rgan Nodir dadasiga dedi:

– Dadajon! Nega uzum yakka bo'lmay, g'ujum bo'ladi?

– Shunday o'g'lim, uzumlar g'ujum bo'lib bir boshga jiplashadi, – dedi dadasi.

– Agar yolg'iz bo'lishsa chumchuqlar yeb ketadilar. Shuning uchun uzumlar ham bir-birlari bilan juda ahil do'st bo'lishadi.

Nodir uzumlarni nega g'ujum-g'ujum bo'lib turishiga endi tushundi.

– Uzumlar ham do'st bo'larkan-da! – dedi ichida ishkomdagi uzumlarga qarab.

OTLARNING KELISHIK QO'SHIMCHALARI BILAN TURLANISHI

Otlarni boshqa so'zlar bilan bog'laydigan so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalar (*-ning, -ni, -ga, -da, -dan*) kelishik qo'shimchalaridir.

Otlarning kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarishi **turlanish** deyiladi.

O'zbek tilida oltita kelishik bo'lib, har bir kelishikning o'z so'rog'i bor. *Qaratqich, tushum, jo'nalish, o'rinpayt* va chiqish kelishiklarining o'z qo'shimchasi bo'lib, faqat bosh kelishikning qo'shimchasi yo'q.

Ko'plikdagi otlarga kelishik qo'shimchalari ko'plik qo'shimchasi (*-lar*)dan keyin qo'shiladi.

17-mashq. *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan otlarga so'roq bering.*

1. Qirg'iy ona **chumchuqni** ko'rib qoldi. 2. O'quvchilar, **qushlarga** g'amxo'r bo'ling! 3. Bo'ri birdan **toychaning** ingichka kishnagan ovozini eshitib qoldi. 4. Biz **qushlarga** in yasadik. 5. Kapalaklar kun isishi bilan chiroyli **qanotlarini** silkitib uchadi.

18-mashq. *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan otlarga so'roq bering. Uning qaysi kelishikda ekanini ayting.*

HUNARNING HIDI QANAQA?

Har **hunarning** o'zicha
Bordur hidi—belgisi.
Nonvoyxonadan kelar
Xamirturushning isi.

Ustaxona yonidan
O'tib qolsang-chi agar, —
Yangi taxta, payraxa
Hidi **dimoqqa** tegar.

Qandolatchidan esa
Mag'izning hidi kelar.
Faqat **bekorchilarning**
Hidi bo'lmas hech qanday.

19-mashq. *O'qing. Nuqtalar o'rniga kelishik qo'shimchalaridan mosini qo'yib, ko'chiring.*

Eshik... kaliti.
Biz... maqsadimiz.
Onasi... yozdi.
Darslar... tayyorladi.
Vatanimiz... sevamiz.
Kino... ko'rdi.
Ip... to'qiladi.
Qushlar... asrang!

20-mashq. *Kelishiklarninig nomlari, so'roqlari, qo'shimchalarini jadvaldan foydalanib, otlarni turlang.*

Kelishiklar	So'roqlari	Qo'shimchalari
Bosh kelishik	Kim? Kimlar? Nima? Nimalar? Qayer? Qayerlar?	—
Qaratqich kelishigi	Kimning? Kimlarning? Nimaning? Nimalarning? Qayerning? Qayerlarning?	-ning
Tushum kelishigi	Kimni? Kimlarni? Nimani? Nimalarni? Qayerni? Qayerlarni?	-ni
Jo'nalish kelishigi	Kimga? Kimlarga? Nimaga? Nimalarga? Qayerga? Qayerlarga?	-ga, -ka, -qa
O'rin-payt kelishigi	Kimda? Kimlarda? Nimada? Nimalarda? Qayerda? Qayerlarda?	-da
Chiqish kelishigi	Kimdan? Kimlardan? Nimadan? Nimalardan? Qayerdan? Qayerlardan?	-dan

Samarqand, Nigora, Alisher, gul.


21-mashq. O'qing. Ko'chiring. Bosh kelishikdagi otni topib, tagiga bir to'g'ri chiziq chizing.

P. Mo'min

CHUMCHUQCHA

Ey, chumchuqcha, chumchuqcha,
 Nozikkina tumshuqcha,
 Goh kapalak quvlaysan,
 To ko'rinmay ketguncha.
 Yoki seni poylarmi,
 Pistirmada mushukcha.
 Olazarak ko'zlaring,
 Yuraging yo'q chumchuqcha.

22-mashq. Rasmni kuzating va uni nomlang. Rasm asosida hikoya tizing. Bosh kelishikdagi otlarning tagiga chizing.



23-mashq. Nuqtalar o'rniga qaratqich kelishigidagi qo'shimchalarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

Kerakli tosh... og'irligi yo'q.

Har bir ish... chamasi bor,

Har daryo... kemasi bor.

Yolg'onchi... rost so'zi ham yolg'on bo'lar.

Gap... qisqasi yaxshi,
Qisqasidan hissasi yaxshi.

24-mashq. *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering. Ularning kelishigini aniqlang.*

H. Imomberdiyev

SIR

Ukasining qaymog'ini
Ayyor Sayyor yeb qo'ydi,
So'ngra: – Jo'ra, oyimga
Aytma, xo'pmi, – deb qo'ydi.
Oqshom Jo'ra maqtanar:
Men **va'damdan** qaytmayman,
Akam qaymoq yeganin
Oyi, **sizga** aytmayman.

25-mashq. *«Kasbim – faxrim» mavzusida bayon yozing. Yozgan bayoningizda quyidagi rejadan foydalanishingiz mumkin.*

Reja:

1. Kasblarning xilma-xilligi.
2. Men tanlagan kasb.
3. Nima uchun shu kasbni tanladim?
4. Men kasbni egallashim uchun qayerda o'qishim kerak?

26-mashq. *O'qing. Quyidagi so'zlarni kelishik qo'shimchalari bilan turlang, kelishik qo'shimchalarini tagiga chizing. Shu so'zlarni ishtirokida 4 ta gap tuzing.*

Ko'klam, kapalak, qushlar, kamalak, varrak, boychechak, bahor, osmon, shamol, gullar.

27-mashq. *O'qing. Nuqtalar o'rniga kelishik qo'shimchalaridan mosini qo'yib, matnni ko'chiring. Qaysi kelishik qo'shimchasini qo'yganingizni izohlang.*

RAHMAT

Maktab... (-da, -dan) qaytayotgan Bobur ko'cha... (-da, -dan) o'tib ketayotganda, ko'cha o'rtasida yotgan kichikroq taxtacha... (-ga, -da) ko'zi tushdi. U yo'lovchilar... (-ga, -ni) xalaqit bermasin deb, uni darrov qo'li... (-ga, -ni) olib, sudraganicha yo'l chetiga qo'ydi. Ro'parasidan velosipedli kishi kelardi. Yetib kelib Bobur... (-ga, -ning):

– Barakalla, o'g'lim, rahmat! – dedi.

Bobur... (-ning, -ni) quvonchi ichiga sig'may ketdi.

28-mashq. *O'qing. Nuqtalar o'rniga kelishik qo'shimchalaridan mosini qo'yib, matnni ko'chiring. Qaysi kelishik qo'shimchalarini qo'yganingizni izohlang.*

SAMAN OT VA BO'RI

Bir kuni kechasi Saman ot toychasi bilan dala... adashib qoldi. Shu vaqt dala... och bo'ri sanqib yurardi. U ochligidan tishlari... g'ichirlatardi. Bo'ri birdan toycha... ingichka kishnagan ovozi... eshitib qoldi. Bo'ri is bilib, saman ot va toycha yurgan tomon... chopdi.

Matnni og'zaki tugatib qo'ying. Saman ot va toychaning taqdiri qanday bo'lishini xohlar edingiz?

OTLARNING EGALIK QO'SHIMCHALARI BILAN TUSLANISHI

29-mashq. *Qalam, koptok, ruchka otlariga -m, -im, -ng, -ing, -si, -i, -imiz, -ngiz, -ingiz, -lari qo'shimchalaridan mosini qo'shib, so'zlarni o'qing.*

Otlarga qo'shiladigan *-m, -im, -ng, -ing, -si, -i, -miz, -imiz, -ngiz, -ingiz, -lari* qo'shimchalari egalik qo'shimchalaridir.

30-mashq. *Ko'chiring. Ajratib ko'rsatilgan otlardagi egalik qo'shimchalarining tagiga chizing.*

1. **Bog'laringni** sayr etganimda
Sen bor eding qallda, **Vatanim** –
Bog' husniga she'r bitganimda
Uni dastlab senga atadim.
2. Tig' **yarasi** tuzalar,
Til **yarasi** tuzalmas.
3. Farzand aziz,
Odobi undan aziz.
4. **Elidan** ayrilgan o'lguncha yig'lar.

31-mashq. *O'qing. Berilgan so'zlarga egalik qo'shimchasini qo'shib, jadvalga to'g'ri joylashtiring.*

Sinf, maktab, qalam, daftar, kitob.

Shaxslar	So'zlar
I shaxs	
II shaxs	
III shaxs	

32-mashq. *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan otlardagi egalik qo'shimchalarini aniqlang.*

1. Opamning **o'g'li** men bilan birga o'qiydi. 2. Olim **akasidan** xat oldi. 3. Ona **yurting** omon bo'lsa, rangi-ro'ying somon bo'lmas. 4. **Otang** borida yo'l tani. 5. Nafisaning **onasidan** boshqa hech kimi yo'q. 6. **Uyimizga** telefon o'rnatishdi. 7. Ishga ketadigan **vaqtim** bo'lib qoldi.

33-mashq. *Jadvalda berilgan otlarni o'qing. Ularga qo'shilgan qo'shimchalarga diqqat qiling.*

Shaxslar	Undoshdan so'ng	Unlidan so'ng
I shaxs	suvim suvimiz	ko'cham ko'chamiz
II shaxs	suving suvingiz	ko'chang ko'changiz
III shaxs	suvi suvlari	ko'chasi ko'chalari

Savol va topshiriqlar

1. *Qanday so'z turkumiga ot deyiladi?*
2. *Kelishiklarning nom va so'roqlarini tartibi bilan ayting.*
3. *Egalik qo'shimchalariga qaysi qo'shimchalar kiradi? Ularga misol keltiring.*

SIFAT – SO‘Z TURKUMI

1. Narsa buyumning belgisini bildirgan so‘zlar turkumi **sifat** deyiladi. Sifat *qanday?*, *qanaqa?* kabi so‘roqlariga javob bo‘ladi.

2. Sifat, odatda, belgining darajasini ham ko‘rsatadi, masalan: *aqlli – aqlliroq bola, eng aqlli bola.*

3. Sifat, odatda, otga bog‘lanadi, masalan: *Qiziq kitob o‘qidim.*

Birinchi gapdagi sifat otga (*Qiziq kitob*), ikkinchi gapdagi sifat esa fe‘lga (*bildirmay kirib keldi*) bog‘langan.

4. Sifat gapda ko‘pincha aniqlovchi, kesim, ba‘zan hol bo‘lib keladi.

34-mashq. Ko‘chiring. Ajratib yozilgan so‘zlarga e‘tibor bering.

Shinamgina xona, **orasta** qiz, **katta** bino, **beozor** qush, **musaffo** osmon, **mashhur** kashfiyotchi, **bepoyon** dala, **qahraton** qish, **intizomli** bola, **xushovoz** xonanda, **fayzli** uy, **tajribali** shifokor, **yosh** mutaxassis.

35-mashq. Berilgan so‘zlarga sifat so‘z turkumidagi so‘zlardan mosini qo‘yib gap tuzing.

Havo, kitob, ensiklopediya, tadbirkor, o‘qituvchi.

36-mashq. O‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga savol bering. Ular qaysi so‘z turkumiga oidligini aniqlang va belgilang.

1. Ular yasagan idish-tovoqlar xaridorlarga kundankunga manzur bo‘lib, **tez** sotila boshladi. 2. Tikuvchi bilan

zargar hayratlanib, og'zilarini ochgancha maza qilib bunday **ajoyib** o'yin-kulgini rosa tomosha qilibdilar. 3. Qushcha shunchalik **qattiq** chirqillabdiki, uning ovozi tevarak-atrofdagi qushlarning hammasi eshitibdi. 4. Mittigina **ochko'z** qushcha ship-shiydon bo'lgan, daraxt atrofida chir aylanibdi. 5. Qushcha shoxdan-shoxga sakrab mevalarni cho'qib yeya boshlabdi va **tez** orada qorni to'yib qolibdi.

37-mashq. *She'rlarni o'qing. Sifatlarni topib, ularni belgilang.*

M. Qodirov

– Doim ozoda yurar,
Baliqlarga maza-da!
– Chunki, yashash joylari –
Isqirt emas, toza-da!

* * *

– Nega so'zlarni xunuk,
Xato yozding, Mirolim?
– Komiljonning ruchkasini
Ishlatuvdim, muallim!

SIFAT DARAJALARI

Sifat belgining darajasini ko'rsatadi.

Oddiy daraja : **katta bino.**

Qiyosiy daraja: **kattaroq bino.**

Orttirma daraja: **eng katta bino.**

38-mashq. *Avval oddiy darajadagi, keyin qiyosiy darajadagi va undan keyin orttirma darajadagi sifatlarni yozing.*

Kattaroq, yosh, eng mustahkam, och, to'qroq, eng baland, eng kichik, sariq, semiz, ko'proq, oz, qalinroq, eng issiq, eng sovuq, torroq, hashamatli, gulli, qorong'iroq.

Oddiy daraja: yosh,...

Qiyosiy daraja: kattaroq,...

Orttirma daraja: eng mustahkam,...

39-mashq. *Quyida 5 ta ot, 6 ta oddiy darajadagi sifatlar berilgan. Sifatlarni ko'chirib yozing.*

Daraxt, achchiq, mitti, qo'ng'iroq, xom, keng, qalam, o'quvchi, mayin, chiroyli, shahar.

40-mashq. *Ko'chiring. Sifatlarni tagiga chizing.*

1. Amudaryo – O'rta Osiyodagi eng yirik va sersuv daryo. 2. Ararat vodiysida, Razdan daryosi sohillarida Armanistonning poytaxti – qadimiy Yerevan joylashgan. 3. Na'matakning guli atirgulgulnikidan kichikroq. 4. Mamont daraxtining shunday yo'g'onlari borki, hatto to'nkasining ustiga kichikroq sozandalar guruhini joylashtirish mumkin. 5. Dunyodagi eng katta botanika bog'i Italiyada bo'lib, u 1309-yilda barpo etilgan.

41-mashq. *Quyida berilgan oddiy darajadagi sifatlarni qiyosiy darajaga, so'ng orttirma darajaga aylantiring.*

Masalan: *ho'l-ho'lroq, eng ho'l.*

Ezma, qalin, baland, ko'k, achchiq, silliq, mustahkam.

42-mashq. *Sifat darajalarining har biriga uchtadan misol yozing.*

Oddiy daraja:

Qiyosiy daraja:

Orttirma daraja:

43-mashq. *O'qing. Sifat darajasini aniqlang va belgilang.*

O. Daminov

QAYSI MEVA ENG SHIRIN?

– Qaysi meva eng shirin?
So‘rab qoldi Oyshirin.
– Terlar to‘kib, yer qazib,
O‘zing nihol o‘tqazib,
Parvarishlab erta-kech,
Charchashni bilmasang hech,
Kurtak yozib, gullar so‘ng,
Sevinchdan qochar uyqing.
Mevasi naq bol bo‘lar.
«Qoyil!» deydi bolalar.
O‘sha meva eng shirin,
Mehnatsevar Oyshirin.

44-mashq. *O'qing. Sifat darajalarini aniqlang va ularni belgilang.*

FOYDALI QAZILMALAR

Yer ostida va yer yuzida eng ko‘p xilma-xil tog‘ jinslari hamda minerallar tarqalgan. Bu tog‘ jinslari va minerallarning ko‘pchiligidan xalq xo‘jaligining turli sohalarida va uy-ro‘zg‘orda foydalaniladi. Ko‘mir, marmar, metall qattiqroq holatdagi foydali qazilmalarga kiradi.

Eng qadimgi davrlarda hosil bo‘lgan tog‘ jinslari temir, nikel, misga boydir.

45-mashq. *O'qing. Sifat va sifat darajalarini aniqlang. Ularni belgilang.*

1. O‘simliklar yerda nam to‘planishiga yordam beradi, zaharli gazlardan saqlaydi. 2. Paxta – bebaho boyligimiz.

3. Ortiqcha ovqat yeyish, to'yib ketish inson uchun eng zararlidir. 4. Taomni sovitibroq iste'mol qilinglar, issiq, qaynoq taomda baraka bo'lmaydi. 5. Sifatli ovqat odam umrini uzoq, sihat-salomat qiladi. 6. Dasturxon atrofi to'riga birinchi bo'lib yoshi katta, mehmon, ota-onasi taklif qilinadi. 7. Dasturxonga taom keltirilgach shoshilmay, sovitibroq iste'mol qilish kerak.

SIFATLARNING YASALISHI

Yasama sifatlar quyidagicha yasaladi:

1. Sifat yasovchi qo'shimchalar bilan: *intizomli o'quvchi, yozgi ta'til, noma'lum jism.*

2. So'zlarni qo'shish bilan: *osmono'par binolar, yaxshi-yomon gaplar.*

46-mashq. O'qing. Sifatlar qanday yasalishiga e'tibor bering.

1. Har kishining ko'zi bor, ular yaxshi-yomonni ajratib qadamini o'ylab bosishi kerak. 2. Sinfimizda «Ogohlik davr talabi» mavzusida tarbiyaviy soat bo'ldi. 3. Qishki ta'tilda Chimyon tog'larida bo'ldik. 4. Huda-behuda anhor bo'yida yuravermanglar.

47-mashq. O'qing. Yasama sifatlarning qaysi qo'shimchalar bilan yasalganini ayting.

Hashamatli, tinchliksevar, bebaho, hurmatli, uzrli.

Shu so'zlardan qatnashtirib gaplar tuzing va yozing.

48-mashq. Berilgan sifat yasovchi qo'shimchalarga so'zlar topib sifatlarni yasang: be-, ba-, -simon, -chan, -viy, no-, ser-.

Masalan: *gazsimon, noma'lum.*

Yasalgan sifatlar ishtirokida uchta gap tuzing va yozing.

QO'SHMA SIFATLARNING YASALISHI

Qo'shma sifatlar quyidagicha yasaladi:

1. Ot va otdan. Bunday qo'shma sifatlar ajratib yoziladi. Masalan: *havo rang* shar, *pushti rang* atirgul.

2. Sifat va otdan. Bunday qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: *sofdil* kishi.

3. Ot yoki ravishga *-ar* qo'shimchali fe'lni qo'shish bilan yasaladi. Bunday qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi. Masalan: *mehnatsevar* bola, *erksevar* xalq.

4. Otga *-aro* qo'shimchali fe'lni qo'shish bilan yasaladi. Bunday qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi. Masalan: *sinflararo* olimpiada, *xalqaro* munosabat.

49-mashq. *O'qing. Qo'shma sifatlar qanday yasalishiga e'tibor bering.*

1. Hozirgi kunda kemalar va samolyotlar qatnovi, telegraf va pochta aloqasi, xalqaro savdo va madaniy hamkorlik munosabatlari yer sharini uzviy qamrab oldi.

2. Uning xushfe'l odobi hammaga yoqar edi. 3. Dadam ommabop adabiyot o'qishni xush ko'radilar. 4. O'ktamning moshrang etikchasi o'ziga yarashib turadi. 5. Tog'amning bog'ida ertapishar o'rik daraxti bor.

50-mashq. *Ko'chiring. Qo'shma sifatlarni qanday yasalganiga e'tibor bering.*

Ochko'z bo'ri, sofdil chol, ishbilarmon tadbirkor, osmono'par binolar, qimmatbaho tosh, sergap xola, qizil rang ko'ylak.

JUFT SIFATLARNING YASALISHI

51-mashq. *O'qing. Ajratib yozilgan so'zlarga e'tibor bering.*

Ya. Qurbonov

Qo'zichoqdek sakrashib-sakrashib,
Dikir-dikir o'ynaymiz, o'ynaymiz.
Erkin qushdek yayrashib-yayrashib,
Sho'x-sho'x qo'shiq kuylaymiz-kuylaymiz.

Juft sifatlar quyidagicha yasaladi:

1. Sifat antonimlaridan: **keng-tor** ko'chalar, **katta-kichik** shaharlar.

2. Bir-biriga yaqin ma'noli sifatlardan: **egri-bugri** yo'llar, **chala-chulpa** ish.

Juft sifatlar chiziqcha bilan yoziladi: **mayda-chuyda**.

Juft sifatlar **u, yu** bilan bog'lansa, chiziqcha qo'yilmaydi: **kecha-yu kunduz**.

Sifatlar takrorlanib ham qo'llaniladi. Bunday sifatlar chiziqcha bilan yoziladi. Takroriy sifatlar o'zi aniqlab kelgan predmetning miqdor jihatidan ortiqligini bildiradi: **katta-katta sabzilar, baland-baland uylar**.

52-mashq. *Quyidagi berilgan juft sifatlardan qatnashtirib gaplar tuzing va yozing.*

Chang-to'zon, kor-xol, top-toza, orzu-havas, rizq-ro'z, shivir-shivir, pag'a-pag'a.

53-mashq. *Ko'chiring. Juft sifatlarning yasalishi va yozilishiga diqqat qiling.*

Baland-past uylar, uzoq-yaqin yo'llar, mayda-chuyda gaplar, katta-kichik bolalar, quyuq-suyuq taomlar, yaxshi-yomon odatlar.

54-mashq. *O'qish darsida o'qilayotgan asarlardan juft sifatli uchta gap topib, ularni daftaringizga yozing. Juft sifatlarning tagiga chizing.*

55-mashq. *O'qing. Juft sifatlarni aniqlang, ularni belgilang.*

P. Mo'min

Hammayoqda qor changi
Gavjum-u, shovqin-suron,
Davom etar qorbo'ron
Bolaligimni shu on
Eslatadi qorbo'ron.

* * *

Chumolilar bo'lgay chayir,
Mitti-mitti qora bayir.
Chalg'imagaydi mehnat payti,
Ularda yo'q lavang – daydi.

56-mashq. *Ko'chiring. Juft sifatlarni tagiga chizing.*

1. Arab geograflari Movarounnahrni «Tuprogi serhosil, mo'l-ko'l tabiiy boyliklarga ega, shirin-shakar mevali bog'larga boy, hayvonot dunyosi rang-barang, aholisi saxovatli, yo'llari, ko'prig-u kechuvlar batartib, ravot-u bozorlari obod, barcha aholisi ilm-u ma'rifatga chanqoq,

iste'dodli» deb ta'riflaydilar. 2. Mamlakat xalifalik tarkibiga qo'shib olingach, ko'plab arablar va forslarning ko'chib kelishi natijasida Movarounnahr aholisi orasida astasekin arab va fors tillarida so'zlashuvchi qatlam vujudga kelgan. 3. Temir yo'llar kecha-yu kunduz tinmay ishlaydi: teplovoz uzundan-uzun yo'lovchi va yuk vagonlarini tortadi. 4. Tunis yerlari asosan tekislikdan iborat, ondasonda o'rmon va qirlar uchrab turadi.

57-mashq. *O'qing. Sifatlarni aniqlang va tagiga chizing.*

1. Taniqli o'zbek yozuvchisi Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek muzeyi o'zi yashab, ijod etgan uyda ochilgan. 2. Qadim zamonlardan bizning davrimizgacha yetib kelgan sevimli o'zbek nonlarini yaxshi bilamiz. 3. Shirador o'tli yaylovlarda qo'y, echki va sigir podalari boqiladi. 4. Sonsanoqsiz tepaliklar va quyuq o'rmonlar orasida sersuv daryolar to'lg'onib oqmoqda.

58-mashq. *Ko'chiring. Sifatlarning gapdagi vazifasini aniqlab, tagiga chizing.*

1. Barvaqt qilingan harakat
Hosilga berar barakat.
2. Birlashgan o'zar,
Birlashmagan to'zar.
3. Intizomli lashkar yengilmas.
4. Bugungi ishni ertaga qo'yma.

59-mashq. *Ko'chiring. Sifatlarning tagiga chizing.*

1. Qachonlardir bu hayvon yer yuzining deyarli hamma joyida yashagan. 2. Gulga chiroyli kapalak kelib qo'ndi. 3. Dala-dashtda yoki hovli, bog'larda uchraydigan chaqqon kaltakesakni qay biringiz ko'rmagansiz! 4. Jyul

Vern romanlari ajoyib-g'aroyib va mo'jizali voqealarga boy.
5. Qadimgi zamonlarda yevropaliklar Hindistonni ajoyibotlar va behad boyliklar o'lkasi deb tasavvur etishardi.

60-mashq. O'qing. Sifatlarni ko'chirib yozing.

AFRIKA

1. Hammayoq cho'l-u biyobon. Goho sarg'ish va upaday yengil qumlardan, goho nuragan kul rang toshloqlardan o'tasiz. G'uborli osmon, jazirama issiq. Na suv, na ko'kat bor. Bu – Afrikaning cho'l qismi, u qit'a hududining ko'pgina qismini egallagan.

2. Qalin tropik o'rmon, uning orasida faqat bolta bilan yo'l ochib yurish mumkin. Daraxtlar, butalar, chirmoviqlar; qalin va sernam yaproqlar bor. Nihoyatda rang-barang va xushbo'y gullar o'sadi. Bu ham Afrika.

3. Dasht desangiz dasht emas. O't bosgan tekislikda qizg'ish va qo'ng'ir qoyatoshlar, ular betini yumshoq chim qoplagan. Uzoqda qalin chakalakzorlar ko'rinadi. Yaqinroq kelib qarasangiz chakalakzorlar emas, balki past bo'yli ulkan bahaybat daraxt ekan. Bu – Afrika savannasining manzarasidir.

BO'LIM YUZASIDAN SAVOLLAR

1. *Qanday so'zlar sifat so'z turkumiga kiradi?*
2. *Sifat darajalarining hosil bo'lish yo'llarini misollar bilan aytib bering.*
3. *Yasama sifatlarning yasalish usullarini aytib bering.*
4. *Qo'shma va juft sifatlarga misol keltiring va yozilishini tushuntiring.*
5. *Tarkibida otlashgan sifat bo'lgan 2–3 ta gap ayting va daftaringizga yozing.*

SON – SO‘Z TURKUMI

61-mashq. *O‘qing. Sanoq ma‘nosini bildirib, qancha?, nechta?, nechanchi?, necha? kabi so‘rog‘larga javob bo‘ladigan so‘zlarni ajrating.*

1. Zulfiya besh-oltita sinfdoshini tug‘ilgan kuniga uyiga taklif qildi. 2. Odil kasal bo‘lib uch-to‘rt kun maktabga kelmadi. 3. O‘rtog‘im Aziz to‘rtinchi qavatda yashaydi. 4. Likopchada besh-oltita olma bor.

Sanoq va tartibni bildirib, *necha?, nechanchi?, qancha?* so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlar **sonlardir**.

Sonlar ma‘no va grammatik jihatdan ikki xil bo‘ladi:

1. Miqdor son. 2. Tartib son.

Miqdor son turlari: 1) Sanoq son. 2) Dona son. 3) Chama son. 4) Jamlovchi son. 5) Taqsim son. 6) Kasr son.

62-mashq. *O‘qing. Tartib ma‘nosini bildirgan so‘zlarning yozilishiga ahamiyat bering.*

DARS JADVALI

Sinfimizda bugun besh soat dars bo‘ldi. Birinchi dars – o‘qish. Bu darsda biz matn va she‘rlarni o‘qiymiz. Ikkinchi dars – rus tili. Bu darsda yangi so‘zlarni o‘qiymiz va yozishni o‘rganamiz. Uchinchi dars – ona tili, biz grammatik qoidalarni o‘rganamiz, to‘g‘ri va chiroyli yozamiz. To‘rtinchi dars – matematika. Bu darsda hisoblaymiz, misol va masalalar yechamiz. Beshinchi dars – jismoniy tarbiya darsi. Darsda basketbol, futbol o‘yinlarini o‘ynaymiz.

63-mashq. *She'rdan sonlarni toping. She'rni ko'chiring.*

T. Yo'ldosh

TO'RT FASL

Fikr qilsak to'rt fasl,
Bir onaning bolasi.
Bir yildan uzilgan-da,
To'rtovin zuvalasi.
Ko'klam, yoz, kuz, qish deymiz,
Uzukka ko'z nechog'lik
To'rtovlon himmatidan,
Hayotimiz bejog'lik.

Bejog'lik

64-mashq. *O'qing. Topishmoqdagi miqdor va tartibni bildirib, necha?, nechanchi?, qancha? so'roqlariga javob beradigan so'zlarni aniqlang.*

1. Bir onadan yuz bola,
Yuzovi ham bo'z bola.
2. Pak-pakana bo'yi bor,
Yetti qavat to'ni bor.
3. Xo'ppa semiz bir tuki yo'q.

65-mashq. *«Gulxan» jurnalidan miqdor ma'noli (so'zlarni) gaplarni besh-oltitasini ko'chiring.*

66-mashq. *O'qing. Sonlarni aniqlab, ularni belgilang.*

1. Tog'day kelsa ham o'zi,
Uch harfdan fil so'zi.
Bahaybatdir butunlay,
To'rt oyog'i ustunday.

2. – O‘rik shirinmi, olma,
Bilasanmi, hoy Chaman?
– Ikkisin ham olib kel,
Tatib ko‘rib, aytaman.

TARTIB VA MIQDOR SONLAR

67-mashq. *Berilgan raqamlarni so‘zlar bilan yozing.*

1. Birliklar: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9
2. O‘nliklar: 10, 20, 30, 40, 50, 60, 70, 80, 90
3. Yuzliklar: 100, 200, 300, 400, 500, 600, 700, 800, 900

	Miqdor sonlar son nomlarini, narsa-buyumlarning	
	miqdorini, son-sanog‘ini ifodalab keladi. **Miqdor sonlar**	
	ko‘pincha arab raqamlari bilan yoziladi.	

68-mashq. *O‘qing. Miqdor sonlar nomlarini so‘z bilan yozing.*

TUG‘ILGAN KUN

25-iyunda ukam Zilolning tug‘ilgan kuni. U bu yil 9 yoshga kiradi. Zilol 5–6 ta o‘rtog‘ini tug‘ilgan kuniga taklif qildi. Dadam 2 kg uzum, 3 kg olma va 1 kg anor olib keldilar. Oyim 1 ta tort pishirdilar. Tug‘ilgan kun juda yaxshi o‘tdi.

69-mashq. *Miqdor sonli to‘rtta gap tuzing va yozing.*

70-mashq. *Quyidagi sanoq sonlarga -inchi (-nchi) qo‘shimchasini qo‘shib o‘qing va yozing.*

- 2, 5, 12, 37, 22, 51, 30, 44, 1, 77, 25, 64, 89

71-mashq. O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga savol bering. Ular sonning qaysi turiga kirishini ayting va belgilang.

BOBOM NASIHATLARI

Salim bobo bir kuni Akrom va Karimni yonlariga olib shunday dedilar:

– Qani, ayt-chi, Akrom kelajakda kim bo'lmoqchisan?

– Men-mi, – dedi Akrom, – yaxshi bir hunar egasi bo'lmoqchiman, ya'ni duradgor.

– Sen-chi? – so'radi Karimdan.

– Men ham hunar egallayman, – dedi Karim.

– Barakalla! – dedi bobo, – xalqimiz ham oltin olma, hunar ol! – deb bejiz aytmagan, yaxshi orzu qilibsizlar. Oltin koni ham bir kun kelib tugaydi, ammo hunar olgan odam-chi, hech kam bo'lmaydi. Hunarga yetishmoq uchun mehnat, mashaqqatlardan cho'chimaslik kerak. Buning uchun astoydil o'qish, o'rganish lozim. Ustozlarning nasihatlarini quloqqa olmoq darkor, o'g'illarim!

|| *-inchi (-nchi)* qo'shimchali sonlar tartib sonlar deb ataladi. ||

|| Tartib son yasovchi *-inchi (-nchi)* qo'shimchasi faqat songa qo'shiladi. *Ikki ming to'rtinchi yil* kabi. ||

SONNING MA'NO JIHATIDAN TURLARI. SANOQ SON, DONA SON

Sanoq son – son-sanog'ini bildiruvchi sonlar. Ular yana **besh qadam** yurishdi.

Sanoq sonlar *kun, oy, yil, kecha-kunduz, soat, nafar, nusxa, tup, bet, millimetr, santimetr, minut, sekund, kilometr, qadam, qarich, enli, gramm, kilogramm, sentner, tonna, metr, kosa, piyola, qoshiq, ho'plam, hovuch, tiyin, so'm, marta* kabi so'zlar bilan birga ishlatiladi. Masalan: Tarvuzning vazni *uch kilogramm keldi. Bir kecha-kunduzda yigirma to'rt soat* mavjud.

Dona son – predmetning donalab sanaladigan umumiy sonini bildiradi. Dona son miqdor songa *-ta* qo'shimchasini qo'shish bilan hosil bo'ladi: *yettita kitob, o'nta olma.*

Dona so'zi asosan narsalarning nomlari bilan, **bosh** so'zi jonli mavjudot nomlari bilan, **tup** so'zi faqat o'simlik nomlari bilan birikib keladi. Masalan: *8 dona shaftoli, 6 dona paxta gulli piyola, 4 tup tut.*

72-mashq. *Berilgan sanoq sonlarga -ta qo'shimchasini yoki dona, tup, bosh so'zlarini kiritib o'qing va yozing.*

12 kitob, 4 tuyoq, 45 qo'y, 30 gilos ko'chatlari, 2 qaychi, stolning 4 oyog'i, mushukning 2 qulog'i, 20 to'ti.

73-mashq. *Gaplarni o'qing. Ajratib yozilgan so'zlar yozilishiga e'tibor bering.*

1. Ariq bo'yida to'rt **tup** tol daraxti bor. 2. Chinor daraxtida **bitta qush** in yasabdi. 3. Salima, menga **olti dona** olma ber! 4. Fermada **ellik olti bosh** qo'y boqiladi. 5. Bog'bon Ahmad bobo **o'n tup olma** va **besh tup olcha** daraxtini ekdi.

74-mashq. *O'qing, berilgan gaplardan sanoq, dona sonlarni ajrating.*

1. 1855-yilda Parijda bo'lib o'tgan jahon ko'rgazmasida kumushsimon 12 bo'lak oq metall hammaning diqqat-e'tiborini o'ziga tortdi. 2. Abu Nasr Forobiy 160 dan ortiq asar yaratdi. 3. Hindiston hududi shimoldan janubga 3200 kilometr, g'arbdan sharqqa 2700 kilometr cho'zilgan. 4. XIII asr boshida Xorazm O'rta Osiyoning eng katta davlati edi.

75-mashq. *O'qing. Ko'chiring. Sonlarni topib ularni belgilang. Son turini aniqlang.*

KIMNING ISHTAHASI QANAQA?

Bo'ri och bo'lsa, bir deganda 10–11 kg ovqatni yeb qo'yadi.

Fil bir kunda 360 kg ovqat, 90 l suvni ko'rdim demaydi.

Lekin kitning oldida bu hali holva ekan. Ular bir kechakunduzda 5–10 tonna baliqlarni hazm qilib yuborar ekan.

Ko'k kitlarning chaqalog'i esa onajonidan kuniga 580 litr sutni lo'qillatib emib olarkan.

76-mashq. *O'qing. Quyidagi sonlarni qaysi son turiga kirishini ayting va jadvalga to'g'ri joylashtiring.*

To'rt nafar, o'n beshta qalam, 10 tup ko'chat, 20 kilometr, o'ttiz minut, 100 dona tuxum, qirq beshta bola, uch hovuch don.

Sanoq son	Dona son

77-mashq. «Gulxan» jurnalidagi biror maqoladan tarkibida son bo'lgan 2–3 ta gap topib, daftaringizga ko'chirib yozing.

SODDA SON, QO'SHMA SON, JUFT SON

Sonlarning tuzilishiga ko'ra turlari.

Sodda son predmetning sanog'ini, miqdorini bildiradi va bir o'zakdan iborat bo'ladi: **2, 5, 8, 40** kabi.

Birdan ortiq so'zlardan tuzilgan sonlar **qo'shma sonlar** deyiladi. Masalan: *o'n bir, ellik olti, to'rt yuz yetmish besh*. Qo'shma sonlar odatda raqam bilan yoziladi: *Toshkent shahridagi 118-maktab*.

Juft son ketma-ket kelgan ikki sonning teng bog'lanishi yo'li bilan hosil bo'ladi. Bunda kichik son oldin keladi. Juft sonlar hamma vaqt chiziqcha bilan yoziladi. Masalan: *bir-ikki, besh-o'n, bir yuz-ikki yuz*.

78-mashq. O'qing. Sodda son, qo'shma son, juft sonlarni ko'chiring. Yozilishiga diqqat qiling. Matndagi savolga og'zaki javob bering.

ARIFMETIKA

Kunlardan bir kuni bir podsho, kimki ushbu masalani hammadan yaxshiroq hal qilsa tilagini ado etishni bildirdi. U masalaning shartini aytdi:

«Men uchta idishda marvarid saqlagan edim. Katta o'g'limga birinchi idishdagi marvaridlarning yarmini berdim. O'rtancha o'g'limga ikkinchi idishdagi marvaridlarning uchdan bir qismini berdim. Kichik o'g'limga esa uchinchi idishdagi marvaridlarning faqat chorak qismini sovg'a qildim. So'ngra men katta

qizimga birinchi idishdagi marvaridlardan to'rtta eng yaxshisini berdim. O'rtancha qizimga ikkinchi idishdagi marvaridlardan oltitasini berdim. Kichik qizimga esa uchinchi idishdagi marvaridlardan faqat ikkitasini hadya qildim. Shunda birinchi idishda 38 ta, ikkinchi idishda 12 ta, uchinchi idishda esa 19 ta marvarid qoldi. Men har bir idishda qanchadan marvarid saqlagan ekanman?»

79-mashq. Gaplarni o'qing. Ajratib yozilgan so'zlarning yozilishiga e'tibor bering.

1. Bir kecha-kunduzda **yigirma to'rt** soat mavjud.
2. Toshkent shahridagi **118**-maktab.
3. **O'n bir, ellik olti.**
4. **Bir-ikki, besh-o'n, yigirma-o'ttiz, bir yuz-ikki yuz.**

80-mashq. O'qing. Sonlarni tuzilishigi, ko'ra turini ayting va mashqni ko'chiring.

1. Qo'shnimiz Anvar bilan bir sinfda o'qiyimiz.
2. Birinchi darsimiz to'qqizdan o'n daqiqa o'tganda tugaydi.
3. Ibn Batuta umrining 28 yilini sayohatda o'tkazib, quruqlik va dengiz osha 120 ming kilometr yo'l bosgan.
4. Erta tongda onangiz: «Tur bolam, soat yetti yarim bo'ldi, maktabingga kech qolasan», – deb uyg'otadi.
5. Spitamen miloddan avvalgi 329–328-yillarda Sug'diyonada Makedon bosqinchilariga qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'oloni rahbari edi.
6. Ishni beshdan uch qismini bajarib bo'ldim.

81-mashq. Sodda son, qo'shma son, juft sonlarni qo'llab, ularni to'g'ri yozish va o'qish bo'yicha guruhlararo musobaqa o'tkazing.

Savol va topshiriqlar

1. Qanday so'zlar turkumi son deyiladi?
2. Nutqimizda ko'p qo'llaniladigan sonlarni ayting.
3. Miqdor va tartib sonlardan qatnashtirib misol tuzing.
4. Sodda son, qo'shma son, juft sonlarning o'zaro farqini ayting.
5. Sonlarning turlarini ayting. Ularga misol keltiring.

OLMOSH – SO‘Z TURKUMI. KISHILIK OLMOSHLARI

Men, sen, u, biz, siz, ular, so'zlari olmoshdir. Bu so'zlar kishilarni ko'rsatadi. Shuning uchun bu olmoshlar kishilik olmoshlari deyiladi. Kishilik olmoshlari *Kim?, kimlar?* so'rog'iga javob bo'ladi. Ana shu xususiyati bilan kishilik olmoshlari otlarga o'xshaydi.

Men, sen, u olmoshlari birlikni (yakka shaxsni); *biz, siz, ular* olmoshlari ko'plikni (ko'p shaxsni) bildiradi.

82-mashq. *O'qing. Kishilik olmoshlarini topib, ular qanday so'roqqa javob bo'lishini ayting.*

BILASIZMI?

Sezgi organlari orqali biz atrofimizdagi dunyoni bilib olamiz. Predmetlarning hidi, rangi, shakli, tovushiga qarab ajratamiz. Ular yordamida predmetning xossalarini bilib olamiz.

Biz og'zimizga tushgan ovqatning mazasini ta'm bilish nervlari orqali miyaga o'tkazamiz va ta'mni sezamiz. Biz predmetni ko'rmasdan ham hididan bilib olishimiz

mumkin. Masalan, ovqatning buzilganligini hidiga qarab aniqlashimiz mumkin.

83-mashq. *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga diqqat qiling, ularga so'roq bering.*

1. Dada, siz bu hunarni qayerda o'rgangansiz? 2. Sen avval mashg'ulot bo'layotgan to'garaklar bilan tanishib chiq. 3. Uning bilimini yuksak baholashdi. 4. Eh, Dilshodvoy, ular bilan gaplashsang, o'zing ham qoyil qolasan. 5. U tengdoshlarining bobomeros hunarlarini chidam va qunt bilan o'rganib, ijodiy boyitib borayotganlariga guvoh bo'ldi.

84-mashq. *O'qing. Kishilik olmoshlarini aniqlang.*

A. To'xtayev

MAKTABIM

Senda o'qib ulg'ayar,
Vatanning o'g'il-qizi.
Kulib-kulib jilmayar,
Hur o'lkamning yulduzi.

Bizlar sening qo'yningda,
O'qib bilim olamiz.
Yayrab-yashnab ulg'ayib,
Sevinchlarga to'lamiz.

Dovonlarni oshib men,
Bo'lsam deyman xizmatda.
O'qitib yosh avlodni,
Ko'rsam deyman xizmatda.

85-mashq. «Salomatlik – tuman boylik» mavzusida bayon yozing. Quyidagi rejadan foydalaning.

Reja:

1. Organizmni chiniqtirish nima?
2. Havo, quyosh va suv–eng yaxshi chiniqish vositalaridir.
3. Siz qanday jismoniy tarbiya turini yaxshi ko'rasiz?

86-mashq. O'qing. Kishilik olmoshlarini aniqlang.

P. Mo'min

Bolalar, sizlarga she'r yozgan chog'im,
Ochilganday bo'lar qalbim–bulog'im.

Sizning dilingizday beg'ubor dil yo'q,
Sizni so'zlatguvchi asalday til yo'q.

Bolalar, sizlarga she'r yozgan chog'im,
Ochilgan bo'ladi ilhom bulog'im.

87-mashq. Olmoshlarni aniqlang, ularni ajratib ko'rsatilgan so'zlar bilan birga ko'chiring.

1. Men jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini juda sevaman.
2. Biz jamoa xo'jalik bog'ini zavq bilan tomosha qildik.
3. Ular Namanganda yashaydilar.
4. Men har kuni ertalab soat yettida o'rnimdan turaman.
5. Siz kutubxonadan qanday kitoblar olib o'qiysiz?

88-mashq. Rasmni kuzating. Kishilik olmoshlaridan qatnashtirib gaplar tuzing. Qisqacha hikoya hosil bo'lsin. Hikoyangizni nomlang va yozib oling.



89-mashq. *O'qing. Kishilik olmoshlarini aniqlang. Ularga savol bering va belgilang.*

1. Ular katta tosh ko'chani kesib o'tib, maktab hovlisi yonidan o'tayotgan edilar. 2. Dadam uni yupatdi. 3. Biz choy ichib bo'lgach, stollarni yig'ishtirib oshxonani tartibga keltirdik. 4. Uning orqasidan Baxtiyorning o'zi ham chopib ketdi. 5. Bolakay nega yig'layapti, balki siz tufayli yig'lagandir. 6. Sen katta bo'lganingda buning ma'nosini bilib olasan. 7. Biz aqlli va mehnatsevar qizni ko'rib xursand bo'ldik.

90-mashq. *So'zlarni o'qing. Shu so'zlardan qatnashtirib, gaplar tuzing va yozing.*

Biz, siz, ular, men, sen, u.

Sport musobaqalari, qatnashdik, o'ynadik, yugurdik, futbol, basketbol, shaxmat-shashka, o'quvchilar, qo'shni tuman, g'olib bo'ldik.

91-mashq. *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga savol bering, ularni belgilang.*

ACHCHIQ CHOY

– **Menga** ham buyuring,

Bobojonim, jon bobo.

– **Siz** mayli, choy keltiring,

Achchiq bo'lsin **u** ammo...

Dasturxonga Salimjon

Bir choynak choy keltirdi...

– Choyingiz ko'p g'alati,

Ko'p qiziq-ku, Salimjon?

– So'zingizni bobojon,

Qulog'imga olganman.

Choy achchiq bo'lsin uchun,

Garmdori solganman.

92-mashq. *O'qing. Chiziqlar o'rniga kishilik olmoshlaridan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

KICHIK YORDAMCHILAR

Rahbaroy opa tovuqchilik fermasida ishlaydi. _____ har kuni darsdan so'ng tovuq fermasiga boramiz. _____ yerda oppoq, sariq jo'jalarni ko'ramiz. _____ anchagina, sanab ulgurmaymiz. Rahbaroy opam tovuq-jo'jalar atrofida parvona. «Tu-tu» desalar bir pasda qanot qoqib kelishadi. _____ tovuqlarga suv, don berishda Rahbaroy opamlarga yordam beramiz. Opamiz _____ xursand bo'lib:

– _____ kichik yordamchilarim! – deya suyardilar.

Qo'yish uchun so'zlar: Biz, u, ular, biz, bizdan, mening.

93-mashq. *O'qing. Kishilik olmoshlarini aniqlang.*

P. Mo'min

O'ZBEK O'G'LONIGA

Oyog'ingdan o't chaqnasin,
O'g'lon sening.
Ona xalqing,
Vatan sening.

Halollig-u mardlik senga,
Hamroh bo'lsin.
O'z bog'ingda o'zing ekan,
Guling kulsin.

Onang tikkan do'pping boshdan
Tushmasin hech,
Duodaman men ham senga
Erta-yu kech.

Savol va topshiriqlar

1. *Kishilik olmoshlariga qaysi so'zlar kiradi?*
2. *Men, siz, ular olmoshlari ishtirokida gaplar tuzing.*

FE'L – SO'Z TURKUMI

94-mashq. *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq berib, ularning qaysi so'z turkumiga kirishini ayting.*

1. Dunyoda shunday ajoyib favvoralar borki, ular odam ishtirokisiz o'zidan o'zi **otilaveradi**. 2. Gimnastika bilan barcha sportchilar **shug'ullanadilar**. 3. Geografik xarita va globusga **nazar solsangiz**, ularning ingichka to'r chiziqlar

bilan qoplanganini ko'rasiz. 4. Siz Toshkent viloyatining Parkent tumanidagi «Kumushkon» dam olish maskaniga borganmisiz?

Predmetning harakatini bildirgan so'zlar fe'l deyiladi. Fe'llar *nima qildi?*, *nima qiladi?*, *nima qilyapti?*, *nima qilmoqda?*, *nima qilmoqchi?* kabi so'roqlardan biriga javob bo'ladi.

Fe'llar gapda kesim vazifasini bajaradi va ega bilan bog'lanadi.

95-mashq. O'qing. Fe'llarni topib, ularga so'roq bering.

UYQU

Odam o'z umrining uchdan bir qismini uyquda o'tkazadi. 75 yoshga kirgan odam umrining 25 yilini uyquda o'tkazgan bo'ladi. Uyqu odam organizmini charchashdan himoya qiladi, uyqu vaqtida organizm dam oladi. Ishlash uchun quvvat to'playdi.

Olimlar uxlayotgan odamning holatini tekshirishdi. Uxlash sekin uyqudan boshlanadi. Bunda nafas olish va tomir urishi sekinlashadi, muskullar bo'shashadi, tana harorati birmuncha pasayadi. 1-1,5 soatdan so'ng tez uyqu boshlanadi. Bu vaqtda barcha ichki organlar faoliyati kuchayadi, kishi tez-tez va chuqur nafas oladi, moddalar almashinuvi va yurak urishi tezlashadi. Odatdagi 7-8 soatlik uyqu davrida sekin uyqu bilan tez uyqu 4-5 marta almashinadi.

96-mashq. O'qing. Matndan fe'llarni toping. Ularni daftaringizga ko'chirib oling.

O'QUVCHILAR QOIDASI

O'quvchi maktabga bilim olish maqsadida keladi. Bu maqsadga erishish uchun avvalo o'qituvchidan saboq oladi. Olgan sabog'ini o'zlashtirish uchun vazifalarni bajaradi, adabiyotlarni o'qiydi, bundan tashqari qo'shimcha mashg'ulotlarda, tadbirlarda ishtirok etadi. Bu ishlarni bajarishda o'quvchi o'z vazifasini to'g'ri taqsimlashni bilishi zarur.

97-mashq. *Berilgan fe'llardan foydalanib, gaplar tuzing.*

Yugurdi, o'qidi, nonushta qildik, pishdi, yig'ishtirib olishdi, berdim.

98-mashq. *«O'qish kitobi»dan foydalanib, fe'l so'z turkumi qatnashgan 7–8 ta gap topib, daftaringizga yozing.*

99-mashq. *«Gulxan» jurnalidan foydalanib, fe'l so'z turkumi qatnashgan ikkita xanda topib ko'chiring.*

100-mashq. *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga savol bering, ularni belgilang. She'rni ko'chiring.*

A. Akbarov

BOLARILAR

Onalari singari
Bolarilar mehnatkash,
Ularga yot shu bois
Tekin yeb, tekin oshash.
Bolarilar bog'larda
Quvnab qo'shiq aytishar.
O'ynab bo'lishgach uyga
Asal yig'ib qaytishar.

101-mashq. *O'qing. So'zlarni turkumlarga ajratib, ularni jadvalga to'g'ri joylashtiring.*

ot	sifat	olmosh	fe'l

Paxta, sevindi, sirli, buloq, hassa, qor, biz, suv, yurolmaydi, ertak, so'ylabdi, istardim, sizni, topishmoq, oppoq, o'qiydi, qutlabdi, tez-tez, men, u, yosh, ular, chiroyli, yozmadim, olmabdi.

102-mashq. *O'qing. Ertakning mazmunini so'zlab bering, ko'chiring. Savollar orqali fe'llarni topib, ularni belgilang.*

A. Irisov

ARPA-BUG'DOY OSH BO'LUR

Uch kishi safarga chiqishibdi. Biri cho'ntaklarini pulga to'ldirib olibdi, ikkinchisi belboqqa tilla-kumushlarini tugib jo'nabdi. Uchinchisi bir xalta non-u tolqon, bir ko'za suv to'ldirib, yo'lga chiqibdi. Buning xaltasini ko'rib, haligi ikki kishi rosa kulibdi, uni mazax qilibdi.

Nima bo'libdi-yu, musofirlar yurib-yurib cho'l-u biyo-bonga borib qolishibdi. U yerda na odam, na bir giyoh bor ekan. Shunda puldor va oltinli kishilarni qorni ochib, nima qilishini bilmay qolibdi. Endi ikkovi tolqoni bor kishiga yalinishga tushishibdi. Biri pul beribdi, ikkinchisi oltin berib, yo non, yo tolqondan sotishni so'rabdi. Tolqonli kishi pul-u oltinni qo'lga olib, og'ziga solib ko'ribdi, keyin aftini burishtiribdi:

– Buni yeb bo'lmaydi-ku, – debdi u va pulni ham, oltinni ham uloqtirib tashlabdi.

– Mayli, kelinglar, – debdi u keyin rahmi kelib puldorlarga, – ovqatni birga baham ko'ramiz. Puldor bilan

tillali kishi o'z qilmishlaridan qattiq xijolat bo'lishibdi, ammo shunday bo'lsa ham darrov o'tirib tolqondan yeyishibdi.

Shunda ikkovi ham:

– Arpa-bug'doy osh ekan, oltin-kumush tosh ekan, – deyishibdi.

BO'LISHLI VA BO'LISHSIZ FE'LLAR

103-mashq. O'qing, ajratib ko'rsatilgan fe'llarning ma'nosiga, farqiga e'tibor bering.

1. Bolalar o'lka tarixiga sayohat qilib, Qirguli, Toshloq, Farg'ona o'lkashunoslik muzeylarida **bo'lishdi**. 2. Mustaqillik yillarida Nukus shahrining qiyofasi tanib bo'lmas darajada **o'zgarib ketdi**. 3. Bahrom singlisini bog'chaga olib **bormadi**. 4. Avaz va Munira bugun maktabga **kelmadi**.

Fe'llar **bo'lishli** va **bo'lishsiz** shaklda qo'llaniladi. Bo'lishli fe'llar harakatning bajarilishini, bo'lishsiz fe'llar esa harakatning bajarilmaganligini bildiradi.

Bo'lishsiz fe'llar fe'l o'zagiga **-ma** qo'shimchasini qo'shish orqali hosil bo'ladi. Masalan: O'qituvchi hikoya **o'qidi**. Bunday ajoyib, o'ziga xos va maftunkor tabiat boshqa biron o'lkada **uchramaydi**.

104-mashq. O'qing. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarga savol berib ularni aniqlang va belgilang.

M. Qodirov

ANTIQA O'QISH

Mavjuda uyga kirib,
Tergar kichik Shahobni:

– O‘qishni bilmaysan-ku,
Nega olding kitobni?
– Opa, kitobingizni
Yirtmadim-ku, – der kulib.
– Zo‘r ekan, rasmlarin
O‘qidim maza qilib!

105-mashq. *Berilgan fe‘llarni ikki guruhga bo‘ling. Bo‘lishli fe‘llarni bir ustunga, bo‘lishsiz fe‘llarni ikkinchi ustunga yozing. Ulardan qatnashtirib 4 ta gap tuzing va yozing.*

Keldi, uzatdi, topshirmadi, ulgurmadi, so‘zladi, chiqdi, turmadi, o‘tirmadi, o‘qidi, boshlanmadi, oldi, sotdi, yozdi.

106-mashq. *O‘qing. She‘rdan bo‘lishli va bo‘lishsiz fe‘llarni ko‘chirib oling.*

S. Sa‘dulla

DILDOR VA KOPTOK

Axtaraman, axtaraman,
Topolmayman hech.
Ayvonda ham, dahlizda ham
Ko‘rinmas koptok.
– Uyni qara, – der oyisi ayvonda turib,
Suyungancha Dildor kirar uyga yugurib.
– Uyda yo‘q-ku! Ko‘rinmaydi,
Qayerda axir?
– Javon borku! Yonlarini
Qaragin bir-bir.
– Javoningiz qaysi biri, qayerda o‘zi?
Javdiraydi uyga boqib, ko‘rmaydi ko‘zi.
– Bu yerda ham yo‘q! Qayerda?

Ayting-chi tezroq.

– Karavotning yon-verini,

Yaxshi-yaxshi qarab boq!

– Karavo-ti qaysi biri? Bilolmayapman!

Topishning hech uddasidan chiqolmayapman!

– Kechalari maza qilib uxlaysan yotib.

– Karavotni topdim, shumi koptokning joyi?

Voy, koptogim mana ekan, rahmat jon oyi!

107-mashq. *Berilgan fe'llarga qo'shimcha qo'shib, bo'lishsiz fe'llar hosil qiling.*

Boq, yur, ol, gapir, o'qi, yoz, tur, boshla.

108-mashq. *Maqollardan bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni toping.*

1. Dushmanga joningni bersang ham siringni berma!

2. Jasur jangdan qo'rqmaydi,

Yovdan sira qo'rqmaydi.

3. Dehqon bo'lsang kuz hayda,

Kuz haydamasang, yuz hayda!

4. Kirishdim, tog'dan oshdim,

Yorug'lik sari yo'l ochdim.

5. Eksang, o'rasan.

109-mashq. *O'qing. Fe'llarni farqlang.*

1. O'zbekistonda «Tohir va Zuhra» filmini ko'rmaganlar topilmasa kerak. 2. Jyul Vernning mard va oliyjanob qahramonlari qayerlarda bo'lishmaydi deysiz! 3. Yer yuzida olti milliarddan ortiq odam yashaydi. 4. Saxovatli quyosh

milliard yillardan buyon o'z nurini yerga sohib turadi. 5. Bobom har kuni tong otmasdan turadi.

FE'L ZAMONLARI

110-mashq. *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan fe'llarga diqqat qiling.*

1. Men bugun raqs to'garagiga **bormoqchiman**. 2. Biz ona Vatan quchog'ida yayrab **o'sib-ulg'aymoqdamiz**. 3. Respublikamiz madhiyasining musiqasini O'zbekiston xalq artisti Mutal Burxonov **bastalagan**. 4. Umida onasi ishdan kelguncha ovqat qilib, ukasiga qarab, darslarini ham tayyorlashga **ulgurardi**.

Fe'lda 3 ta zamon bor: 1) **o'tgan zamon**, 2) **hozirgi zamon**, 3) **kelasi zamon**. Fe'l zamoni nutq so'zlanib turgan vaqt (payt)ga nisbatan belgilanadi (aniqlanadi). Masalan: **o'qidim**, **o'qigansan** harakatning nutq so'zlanib turgan vaqtdan oldin bajarilganligini bildiradi, shuning uchun ular **o'tgan zamon fe'li** deyiladi; **o'qiyapman**, **o'qimoqdasan** fe'llari harakatning nutq so'zlanib turgan paytda bajarilayotganini bildiradi, shuning uchun bu fe'llar **hozirgi zamon fe'li** hisoblanadi; **o'qimoqchiman**, **o'qimoqchisan** fe'llari harakatning nutq so'zlanib turgan paytdan keyin bajarilishini bildiradi, shuning uchun ular **kelasi zamon fe'llari** deyiladi.

111-mashq. *So'roqlar orqali fe'llarni aniqlang, ularning zamonlarini (o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon) ayting. Mashqni ko'chiring.*

1. Kumush qish kirib keldi. 2. Zuhra bizning sinfda o'qiydi. 3. Ular bir-birlariga eshittirmay quloqlariga

shivirlab aytadilar. 4. Salim bilan katta tanaffusda tushlikka oshxonaga bordik. 5. Oyim bilan akam bozorga boradilar.

112-mashq. O'qing. Fe'l zamonlarini aniqlang. Matn mazmunini tushuntiring. Mashqni ko'chiring.

SUVNI EHTIYOT QILING!

Suv odam hayotida katta ahamiyatga ega. Odam o'z ehtiyoji uchun faqat toza, chuchuk suvdan foydalanadi. Lekin yerda chuchuk suv uncha ko'p emas. Chuchuk suv ifloslanib ketganidan yetishmay qolmoqda. Uni asrash kerak. Suvning ifloslanishidan barcha tirik mavjudot zararlanadi. Suvni asrash va tejab sarflash zarur.



113-mashq. O'qing. Fe'l zamonlarini savol berib aniqlang, ularni belgilang. Fe'llarni ko'chirib yozing.

M. Qodirov

HOVLIDA FUTBOL QIZIR

Hovlida futbol qizir
Yakshanbada tongdanoq.
Soppa-sog'man, o'yinda –
Qatnasholmayman biroq.
Men chaqaloq ukamni
Allalab, ovutaman.
Oyim yumushlarini
Tamomlashin kutaman.
Aksiga olib, oyim
Bo'shamas sira ishdan,
Ukam yig'lar, belanchak
Sal to'xtasa uchishdan.
Axir, o'g'il bola ham
Injiq bo'larmi shuncha?
Miriqib uxlasa-chi,
Hech bo'lmasa buguncha.
Keyin mayli, hech qachon,
Tashqari chiqmay bir zum.
Yuzta ukam bo'lsa ham,
Ovutar edim o'zim.
Hovlida futbol qizir,
Bolalar sho'x qichqirar,
Ahvolimga achinib,
Hatto ukam chinqirar.

O'TGAN ZAMON FE'LI

O'tgan zamon fe'li harakatning nutq so'zlanib turgan paytdan oldin bajarilgan (yoki bajarilmagan)ini bildiradi. Masalan: *bordim, borganman* (bajarilgan harakat), *bormadim, bormaganman* (bajarilmagan harakat).

O'tgan zamon fe'li bo'lishli yoki bo'lishsiz fe'llarga *-di, -gan* qo'shimchalari, *-m, -man* shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil bo'ladi. *-di, -gan*, qo'shimchalari bilan hosil bo'lgan o'tgan zamon fe'li III shaxsi maxsus shaxs-son qo'shimchasini olmaydi.

114-mashq. *O'qing. Fe'llarini topib, ularning tarkibidagi zamon, shaxs-son qo'shimchalarini aniqlang.*

1. Men bugun bitta ham baho ololmadim. 2. Respublikamiz Konstitutsiyasida ota-onalar, farzandlar, ularning o'zaro huquq va burchlari haqida yozib qo'yilgan. 3. Hasanning onasi og'ir kasal bo'lib, uy yumushlariga holi kelmay qoldi. 4. Noila dugonasi Salimalarnikiga shoshilganicha ketib borardi. 5. Havo aynib, yomg'ir yog'a boshladi. 6. Bu voqeani menga akam so'zlab bergan edi.

115-mashq. *O'qing. Fe'llarni aniqlab, ularning zamoni va shaxs-sonini ayting.*

1. Malohat ukasini bog'chaga olib bordi. 2. Bolalar qaytib kelganlarida, o'yinchoqlar haryoqda sochilib yotar edi. 3. Mushukcha esa qochib ketgan edi. 4. Kechqurun bolalar qorbo'ron o'ynadilar. 5. Katta bo'lsang kim bo'lmoqchisan?

116-mashq. *O'qing. O'tgan zamon bo'lishli yoki bo'lishsiz fe'llarini, -di, -gan qo'shimchalarini toping.*

ANVAR

Anvar maktabdan qaytayotgan edi. Qo'shnisi Halima xola do'kondan sut, non olib kelayotgan edi. Anvar Halima xolaning oldiga borib salom berdi.

– Xolajon, sumkangizni bering, olib borib beraman, – dedi.

– Rahmat, o'g'lim, odobli bola ekansan, -- dedi Halima xola.

Anvar sumkani Halima xolaning uyiga olib borib berdi.

117-mashq. *Berilgan fe'llarni o'tgan zamonda to'liq tustlang. Ular ishtirokida gaplar tuzib yozing.*

O'yla, yaqinlashdi, o'qigan.

HOZIRGI ZAMON FE'LI

Hozirgi zamon fe'li nutq so'zlanib turgan paytda bajarilayotgan (yoki bajarilmayotgan) harakatni bildiradi. Masalan: *o'qiyapman, o'qimoqdaman* (bajarilayotgan harakat), *o'qimayapman* (bajarilmayotgan harakat).

Hozirgi zamon fe'li *-yap, -moqda* qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil bo'ladi.

Shaxs-son qo'shimchasi zamon qo'shimchasidan so'ng qo'shiladi. Masalan: *chizyapman, chizmoqdaman, chizyapti* shaxs-son qo'shimchasidir.

Hozirgi zamon fe'li **-yap** qo'shimchasini qo'shish bilan hosil bo'lganda, uchala shaxs ham (I shaxs, II shaxs, III shaxs) shaxs-son qo'shimchasini oladi: **o'ynayapman, o'ynayapsan, o'ynayapti.**

Hozirgi zamon fe'li **-moqda** qo'shimchasi bilan hosil bo'lganda, shu fe'lning III shaxsi maxsus shaxs-son qo'shimchasiga ega bo'lmaydi: **o'ynamoqdaman, o'ynamoqdasan, o'ynamoqda.** Hozirgi zamon qo'shimchasi **-yap** bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarga qo'shila oladi: **ko'ryapman, o'qiyapman, ko'rmayapman, o'qimayapman.**

-moqda qo'shimchasi faqat bo'lishli fe'llarga qo'shiladi: **bo'lmoqda, yozmoqda.**

118-mashq. *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan fe'llarga so'roq bering.*

1. Dilbar qo'g'irchoqqa ko'ylak tikmoqchi **bo'ldi.**
2. Baxtiyorning otasi shu zavodda **ishlaydi.** 3. Sovuq shamol esib, qor **yog'moqda.** 4. Toshkent kun sayin chiroy **ochmoqda.** 5. Ona diyorimizda zamonaviy binolar qad **ko'tarmoqda.**

119-mashq. *O'qi, yig'ishtir, bor fe'llarini -moqda, -yap qo'shimchalarini qo'shgan holda tustlang.*

Ulardan qatnashtirib gap tuzib yozing.

120-mashq. *O'qing. Hozirgi zamon fe'llarini aniqlang.*

XANDALAR

Ota-onasi yo'qligida Farida singlisini cho'miltirayapti.
– Mana, men seni hatto cho'miltirib qo'yapman-a?

– Ha, faqat oyim cho‘miltirishdan oldin oyoq kiyimimni yechib qo‘yardilar, – dedi singlisi.

* * *

– Azamat, ukangni o‘ynatyapsanmi?

– Yo‘q, uni Nasiba opam ko‘tarib yuribdilar. Men o‘zimni o‘ynatyapman.

KELASI ZAMON FE‘LI

Kelasi zamon fe‘li nutq so‘zlanib turgan paytdan keyin bajariladigan harakatni bildiradi. Masalan: *o‘qimoqchisan, o‘qimoqchimiz, o‘qimoqchi*.

Kelasi zamon fe‘li *-moqchi* qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil bo‘ladi. Shaxs-son qo‘shimchasi zamon qo‘shimchasidan so‘ng qo‘shiladi.

-moqchi qo‘shimchasi bilan hosil bo‘lgan kelasi zamon fe‘li III shaxsda shaxs-son qo‘shimchasini olmaydi. Masalan: *bermoqchiman, bermoqchisan, bermoqchi*, (*-moqchi* – zamon qo‘shimchasi *-man, -san* – shaxs-son qo‘shimchasidir).

121-mashq. *O‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni yozilishiga e‘tibor bering.*

Maktabimizda «Ertaklar yaxshilikka yetaklar» mavzusida kecha **o‘tkazmoqchimiz**. Hamma sinflar o‘zbek xalq ertaklaridan parchalar namoyish **etishmoqchi**. Bizning sinfimiz o‘quvchilari bilan «Zumrad va Qimmat» ertagini **sahnalashtirmoqchimiz**.

Sizning maktabingizda qanday tadbirlar o‘tkaziladi? So‘zlab bering.

122-mashq. *O'qing. Kelasi zamon fe'lini toping.*

1. Dadam bilan do'kondan akvarium olmoqchimiz.
2. Dam olish kuni biz qo'g'irchoq teatriga bormoqchimiz.
3. Sayyoramizning olti materigidan biri bo'lgan Antarktida haqida ko'proq ma'lumot bilmoqchiman.
4. Har bir yosh xonanda o'z san'atini katta sahnada namoyish etmoqchi bo'ladi.
5. Nafisa opa bu yil ToshDPU ga hujjatlarini topshirmoqchi.

123-mashq. *Berilgan so'zlarni kelasi zamonda tuslang.*

Keltir, ol, yur, o'qi, bor, yoz, hisobla.

124-mashq. *O'qing. Matndan o'tgan zamon, kelasi zamon fe'llarini aniqlang.*

QISH

Kumush qish kirib keldi. Oppoq qor hammayoqni qopladi, suvlar muzladi. Daraxtlar oppoq libos kiydi. Ertalab bolalar issiq kiyinadilar. Ular chana uchadilar. Darsdan keyin biz stadiongga bormoqchimiz. U yerda bolalarning xokkey o'ynashini tomosha qilmoqchimiz.

125-mashq. *O'qing. Matnni ko'chiring. Fe'l zamonlarini aniqlab, ularni belgilang.*

TARTIB

Ko'chada ketayotgan edik. Birdan yomg'ir yog'ib qoldi, so'ng yomg'ir jalaga aylandi. Hamma o'zini panaga urdi. Biz ham ro'para kelgan bir xonadonga o'zimizni urdik. Bir zumda hammayoq loy bo'ldi. Biz xonadon yo'lagiga poyabzallarimizni yechib, ichkariga kirib yomg'ir tinishini

kutdik. Lola ismli bir qiz bor ekan, biz ichkariga kirishimiz bilan darhol tuflilarni tozalab terib qo'ymoqda edi.

Biz aqlli va mehnatsevar qizni ko'rib hayron qoldik. Yomg'ir tingach, Lolaga rahmat aytib ko'chaga chiqdik. Keyin bilsam, Lolaning uyida shunday tartib saqlanar ekan.

126-mashq. *O'qing. Gaplarni ko'chiring. Gaplardagi fe'l zamonlarini aniqlang, ularni alohida ko'chirib yozing.*

1. O't-o'lanlar orasidan uzun ilon o'rmalab chiqib qolibdi.
2. Nima uchun sichqon mushuk bilan, asalari ayiq bilan, chumchuq chigirtka bilan do'stlasha olmasligini sababini bilmoqchi bo'ldi. 3. Qancha-qancha kunlar o'tib ketmoqda.
4. Zolim olamni qumga bostirmoqchi. 5. Garmsel o'chakishib o'tlarni kuydirdi. 6. Garmselning dastidan bolalarim bilan qochib ketyapman.

1. O'tgan zamon fe'li:

2. Hozirgi zamon fe'li:

3. Kelasi zamon fe'li:

127-mashq. *O'qing. So'zlarni fe'l zamonlariga tuslab yozing.*

N a m u n a: *Bil.*

O'tgan zamon fe'li: **bildim**

Hozirgi zamon fe'li: **bilyapman**

Kelasi zamon fe'li: **bilmoqchiman**

Yur, bajar, sol, qol, cho'mil.

FE'LLARNING YASALISHI

128-mashq. *O'qing. Birinchi, ikkinchi va uchinchi ustunchalardagi fe'llarning yozilishiga ahamiyat bering.*

yoz	bajardi	olib kel
bajar	keldi	ishlab ber
kel	ishladi	yozi ber
ishla	yozi	bajarib qo'y

Fe'l ikki usul bilan yasaladi:

1. Fe'l yasovchi qo'shimchalar yordamida: *gulladi, ishlayapti, shodlandi, qaraydi.*

2. So'zlarni qo'shish yordamida: *olib keldi, e'lon qildi, xabar berdi.*

129-mashq. *O'qing. Fe'llarni qanday yasalganini ayting.*

1. Xalqimiz o'z farzandlariga, O'zbekiston Harbiy Kuchlariga ishonadi. 2. Eman daraxti ulkan bo'lgani bilan qattiq sovuqqa chiday olmaydi. 3. Uning saroyidagi kutubxonani jamiki yangi kitoblar bilan to'ldirib turishar, u o'qigani-o'qigan ekan. 4. Eron hududining anchagina qismini tog'lar va baland tekisliklar egallaydi.

130-mashq. *O'qing. Matndagi fe'llar yasalishiga e'tibor bering. Matn mazmunini qayta hikoya qiling.*

TENNIS

Tennis bolalar va katta yoshdagilarning maroqli sport o'yinidir. Rezina koptokcha raketka bilan maydonchada to'r ustidan urib o'ynaladi.

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportga e'tibor tubdan o'zgardi.

1994-yil O'zbekistonda tennischilarning xalqaro turniriga asos solindi.

Tennischilarimiz jahon chempionati sanaluvchi Devis kubogi musobaqalarida qatnasha boshladilar.

131-mashq. O'qing. Ko'chiring, fe'l yasovchi qo'shimchani tagiga chizing.

FOYDALI O'SIMLIKLAR

Tabiatda turli o'simliklar ko'p. Ular: xushbo'y rayhon, jambil, limono't, ermon, yalpiz, dalachoy, otquloq va boshqa o'tlardir.

Har bir giyoh inson salomatligi uchun zarur. Dorivor o'tlarni ildizi bilan yulish yaramaydi. Ularni barg qisminigina yulish kerak.

132-mashq. O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga savol bering. Fe'llarni aniqlang, ularni belgilang.

GULLAR MALIKASI

Atirgulni gullar malikasi deyishadi. Atirgul juda go'zal, xushbo'y. Erta bahordan kech kuzgacha ochilib, kishining dilini ravshan qiladi.

Atirguldanda tabiiy moy olinadi, dori-darmon sifatida foydalaniladi. Atirgulning gulkosa barglari, ayniqsa, shifobaxsh hisoblanadi. Shu tufayli undan murabbo, gulqand tayyorlanadi.

Qadim zamonlardan beri kishilar atirguldanda gulqand tayyorlab, bir qator xastaliklarni davolashda undan foyda-

lanishgan. Yurtimizning hamma hiyobonlarida atirgullar ekishda ishtirok qiling.

Savol va topshiriqlar

1. *Fe'llar qanday savollarga javob bo'ladi? Bo'lishli, bo'lishsiz fe'llarga misol keltiring.*
2. *Fe'llarda nechta zamon bor? Ular qaysilar?*
3. *O'tgan zamon qo'shimchasining aytilishi va yozilishini misollar bilan tushuntiring.*
4. *Hozirgi zamon fe'li qaysi qo'shimchalarni qo'shish bilan hosil bo'ladi?*
5. *Kelasi zamon-chi?*
6. *Fe'llar qanday yasaladi? Misol keltiring.*

RAVISH – SO‘Z TURKUMI

Ish-harakat, holatning belgisini bildirgan so‘zlar turkumi **ravish** deyiladi.

Ravish *qanday?*, *qachon?*, *qayerda?*, *qayerdan?*, *qancha?* kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi.

Ravish gapda fe‘lga bog‘lanib, ish-harakatning qay holda bajarilishini, paytini, o‘rnini, daraja-miqdorini bildiradi.

Masalan: *Kecha* havo issiq bo‘ldi.

133-mashq. O‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan ravishlarning qaysi so‘zga bog‘langanligini, qanday so‘roqqa javob bo‘lishini ayting.

1. Bu gaplar menga aytilganini **darrov** sezdim. 2. Bobom qovunini **ertaroq** sotayotganidan xursand edilar. 3. Borsak, **allaqachon** aravakashlar qovunni tushurib, xirmon qilib qo‘yishibdi. 4. Uyga yaqinlashganda **birdan** to‘xtab qoldim. 5. Bobom **shartta** qovunni qo‘liga olib uning orqasidan yurdi.

134-mashq. O‘qing. Ravishlarni savollar orqali aniqlang.

1. Tug‘ilib o‘sgan qishlog‘imga bir borib, bir necha kun mehmon bo‘ldim. 2. Erta-yu kech bobomning ortidan ergashib yurdim. 3. Bir kuni ertalab katta ko‘k eshagimizni yetaklab chiqdim. 4. Dala hovlimiz tog‘ etaklarida bo‘lib, yarim chaqirimcha narida, adir tomonda joylashgan edi.

135-mashq. O‘qing. Ravishlarni toping va tagiga chizing.

1. Erta turganning ishi erta bitar.

2. Kuz g‘amini yoz o‘yla,

Yoz o'ylamasang, yuz o'yla.

3. Vaqtida bir tomchi suv –
Bir qadoq oltindan afzal.
4. Ko'pdan ko'p aql chiqar.
5. Erta ekkan – xirmon olur,
Kech qolgan armon qilur.

136-mashq. *Quyidagi rasmdan foydalanib, «Mahallada hashar» nomli hikoya tuzing. Hikoyangizni berilgan reja asosida bayon eting va yozing.*

Reja:

1. Bizning mahalla.
2. Mahallamizda hashar bo'ldi.
3. Hasharda hamma qatnashdi.



137-mashq. O'qing. Ravishlarni savollar yordamida aniqlang. Ularni belgilang.

1. Yoz bo'yi Yong'oqjon quyoshdan nur simiribdi. To'nini o'zgartiribdi. Mag'zi yog'ga to'lib yetilibdi. Ammo bolalar uning oldiga hadeganda kelishavermabdi. Yong'oqjon ularni kutaverib charchabdi. Oxiri ukajonisi Soqqani yerga do'p etib sakratibdi-yu, bolalar oldiga dumalatib yuboribdi.

2. Nima bo'lmasin, sayozlikda ajoyib ko'lob paydo bo'ldi. Endi bola hech qo'rqmasdan cho'milardi. 3. Uning g'alati orzusi bor edi: u baliqqa aylanib qolishni va uzoq-uzoqlarga suzib ketishni xayol qilardi.

138-mashq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering. Ravishlarni belgilang. Hikoyadan o'zingizga tegishli xulosa chiqaring.

YOSH BOLAGA GUGURT BERISH XAVFLI!

Gulnora kichik ukasi Rustamni o'ynatib yurardi. Rustam **injiqlik** qilib yig'lardi. U har xil o'yinchoqlarni berib ko'rди, ammo u hadeganda yupanavermadi. Shunda u shu yerda turgan gugurtni olib Rustamga berdi.

Shu payt buvisi kirib, nabirasining qo'lidан gugurtni olib qo'ydi.

– Yosh bolaga gugurt berib bo'lmaydi, – dedi buvisi, – bilmaydi, o'ynab turib chaqib yuborishi mumkin, bu juda xavfli!

Gulnora qilgan ishidan xijolat bo'lib qoldi.

RAVISHNING MA'NO JIHATIDAN TURLARI. HOLAT RAVISHI

Holat ravishi ish-harakatning qanday holatda yoki qay tarzda bajarilayotganligini bildirib, *qanday?*, *qay holda?* yoki *qay tarzda?* so'roqlariga javob bo'ladi.

Holat ravishiga *asta*, *sekin*, *jim*, *darrov*, *birdan*, *majburan*, *tasodifan*, *astoydil*, *ko'pincha* kabi so'zlar kiradi. Masalan: *Biz tasodifan uchrashib qoldik.*

139-mashq. *O'qing. Holat ravishini toping.*

1. Yo'lovchi astoydil yolvorishga tushibdi. 2. O'quvchi bolalarni bittalab sanay boshladi. 3. Ta'lat avaylab cho'ntagidan sopolni oldi-da, ustaga tutqazdi. 4. Qo'shni qiz Ra'no singlisi Shahlo bilan bir sinfda o'qir, ular ko'pincha birga dars qilishardi. 5. Tal'at darhol kataklar chizig'iga yaqinroq bordi-da, sinchiklab tikildi.

140-mashq. *O'qing. Holat ravishini topib, tagiga chizing.*

BUVIJON VA AYAJON

Buvijonim aytsa ertak,
Biz tinglaymiz sergak-sergak.
Ertakdan so'ng alla aytsa,
Biz uxlaymiz asta-asta.

Ayajonim alla aytmay,
Bizlar bilan tinglar atay.
Bizlar bilan tinglar yuvosh,
Chunki ayam buvimdan yosh.

PAYT RAVISHI

Payt ravishi ish-harakatning bajarilish paytini bildirib, *qachon?, qachongacha?, qachondan beri?* kabi so'roqlariga javob bo'ladi. Payt ravishiga *erta, endi, ertalab, ilgari, so'ngra, keyin, kecha, bugun, avval, qishin-yozin, hozir* kabi so'zlar kiradi.

141-mashq. *O'qing. Payt ravishini aniqlab, tagiga chizing.*

MAROQLI TUSH

Tushimda-chi, men bugun
Aytaymi nima ko'rdim?
Oq, qizil charos uzum,
Rosa to'ydim bir o'zim.

Maqtanib bo'lgach Qodir,
Gap qotdi asta Nodir:
-Tushingizdagi uzumni,
Aka yebsiz bir o'zingiz,
Menga aytmay yegani,
Qanday to'ldi ko'nglingiz?!

142-mashq. *O'qing. Ko'chiring. Holat va payt ravishlarini topib, ustiga turini yozing.*

1. Sichqon o'sha kuni yarim kechada issiq inini tashlab, ko'chib qutilibdi. 2. Oradan ko'p o'tmay, sichqon bir shoda asl marvaridni arang sudrab kelibdi. 3. To'satdan maxluq menga tashlanib qoldi. 4. Erta bilan ota-bola ko'p yumushlarni bajarishga ulgurishdi.

143-mashq. *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga savol bering. Ularni ravishning qaysi turiga kirishini ayting. Ravishlarni tegishlicha belgilang.*

HASSA

Nurali bobom – bog'bonlar. U kishi **har bahor** nihol ko'chati o'tqazadilar. Bobom ekan ko'chat **bitta qolmay** ko'karadi. **Uch yil burun** ariq bo'yida bobom tol ko'chati o'tqazganlar, shoxlari katta, yo'g'on bo'lib, egilib qoldi. Bobom uni kesib, uzumga so'ritok qildilar. Yana shox novdasidan o'zlariga hassa yasab oldilar.

– Tavba, hayronman, **uch yil burun** tol ko'chatini bobom ko'tarib keluvdilar. Endi esa tol shoxi hassa bo'lib bobomni ko'tarib kelyapti-ya!

144-mashq. *So'zlarni o'qing. Ot, fe'l, ravishlarni jadvalning tegishli so'z turkumiga joylashtiring.*

O'ynayapti, oshpaz, kecha, bugun, tarbiyachi, har doim, amaki, sekin, yozmoqchi, o'qishmoqchi, baliqchi, haydovchi, tikyapti.

ot	fe'l	ravish

RAVISHLARNING YASALISHI

Ravishlar quyidagicha yasaladi:

Ravish yasovchi qo'shimchalarga: **-cha, -larcha, -chasiga, -ligicha, -dek, -lab, -ona** kabi qo'shimchalar kiradi. Masalan: **yangicha, qisqacha, do'stona.**

Soʻzlarni qoʻshish va juftlash bilan: *bir zumda, qishin-yozin.*

Juft ravishlar bir-biriga yaqin maʼnoli soʻzlardan yasaladi. Chiziqcha (-) bilan yoziladi: *eson-omon, asta-sekin.*

145-mashq. *Oʻqing. Ravishlarni yozilishiga diqqat qiling.*

Qisqacha	asta-sekin
kattalardek	u yerda
doʻstona	erta-indin
yangicha	hech qachon

146-mashq. *Oʻqing. Ravishlarni toping. Ravish yasovchi qoʻshimchalar tagiga chizing.*

1. Nodir oʻrikni xomligicha terib oldi. 2. Ertalab badantarbiya mashqlarini qilishni unutmadingizmi? 3. Matnni qisqacha soʻzlab bering. 4. Koʻplab kitob oʻqish kerak. 5. Xonani asosan yuqori sinf qizlari bezatishadi. 6. Shuhrat kattalardek javob berdi.

147-mashq. *Oʻqing. Quyidagi soʻzlarga ravish yasovchi qoʻshimchalardan mosini qoʻshib, soʻzlarni koʻchiring.*

Doʻst...	butun...
Koʻrgan...	qahramon...
Oʻzi...	yaxshi...
boshqa...	yangi...

148-mashq. *Oʻqing. Avval qoʻshma ravishlarni, keyin juft ravishlarni koʻchiring.*

Erta-kech, asta-sekin, hamma vaqt, bir zumda, ochiq-oydin, kecha-kunduz, allaqachon, hech qachon, eson-omon, bir necha.

149-mashq. *O'qing. Juft ravishlar yasab yozing.*

ketma	bunda
unda	yuz
yuzma	omon
bugun	erta
eson	ket
kecha	kunduz

Savol va topshiriqlar

1. *Qanday so'zlar ravish turkumiga kiradi?*
2. *Ravishlarning ma'no jihatidan turlarini ayting. Misol keltiring.*
3. *Ravishlar qanday yasaladi? Misollar keltiring.*

YORDAMCHI SO'Z TURKUMLARI

Ko'makchi, bog'lovchi va yuklama yordamchi so'z turkumlaridir. Yordamchi so'zlar o'zicha – yakka holda ma'no anglatmaydi, gap bo'lagi bo'la olmaydi. Ular mustaqil so'zlar va ayrim gaplar orasidagi munosabatni anglatishga xizmat qiladi, so'zga va gapning mazmuniga turli qo'shimcha ma'nolar qo'shadi. Masalan: *Ariq bo'yi ko'm-ko'k maysalar bilan qoplangan.*

150-mashq. *O'qing. Ko'makchilarni toping.*

1. Biz sinf rahbarimiz bilan sayohatga bordik.
2. Maktab kutubxonasi uchun yangi darsliklar olib kelindi.
3. Xatni Muborak orqali berib yubordi.
4. Havo kun sayin isib bormoqda.
5. U qor yoqqani uchun bora olmadi.
5. Vatanimizga keladigan mehmonlar yil sayin ortib bormoqda.

Bilan, uchun, sayin, orqali, sari kabi so'zlar **ko'makchilardir.** **Va, ammo, lekin, biroq, chunki** kabi so'zlar **bog'lovchilardir.**

|| Faqat, ham, hattoki soʻzlari va *-mi, -chi, -gina, -a* ||
(ya), -u (yu), -da, -ku yuklamalardir.

151-mashq. *Oʻqing. Bogʻlovchilarni toping va diqqat qiling.*

1. Maktabimizda yosh duradgorlar va mohir qoʻllar toʻgaragi tashkil qilingan. Abbas bilan Aziz yosh duradgorlar toʻgaragiga qatnashadi, ammo Gulnora tikuvchilik kasbiga qiziqadi.

2. Navroʻz bayramiga bir hafta qoldi, biroq Murod sheʼrini hali yaxshi yod olmagan.

3. Biz uygʻa kechroq qaytdik, chunki Amir Temur muzeyiga bordik.

152-mashq. *Koʻchiring. Yuklamalarni tagiga chizing.*

XANDALAR

Ona: – Oʻgʻlim, nega kalish kiyding, tashqarida loy yoʻq-ku?!

Oʻgʻil: – Tashvishlanmang oyijon, oʻzim topaman.

* * *

– Oyi, Farhodga xurmo berarkansiz, – oshxonaga yugurib kirdi Sardor.

– Voy, oʻrgilay akasiga mehribon boʻlsa, oʻzing-chi yemaysanmi, oʻgʻlim?

– Farhod xurmoni menga soʻrayapti-da, oyi, – dedi Sardor.

153-mashq. *Oʻqing. Quyidagi soʻzlardan foydalanib, gaplar tuzing. Gaplarni yozing.*

Va, ham, to'xtang-chi, yog'di-ku, biroq, ammo, ber-chi, bo'lsa-da, faqat.

154-mashq. Gaplarni o'qing. Yordamchi so'z turkumlarini aniqlang va belgilang.

1. Dildora qutichadan igna, ip oldi-da, ignaga oq ip o'tkazib, fartugining so'kilgan joyini tika boshladi. 2. Zilola, xat yozishni bilmaysan-ku, – oyisi yana so'radi qizidan. 3. Nargiza uy bilan hovlini supurib bo'ldi-da, atrofga qaradi. 4. Nargiza o'zi qilgan ishidan mamnun bo'lib quvondi, lekin qo'lidagi supurgini devorga tikkalab qo'ydi. 5. Nozim opasi singari «a'lo» baholarga o'qish uchun harakat qilardi. 6. Nilufar, ukang bilan shoshib, yugursang, bilasanmi, yomon bo'ladi-ya! Yosh bola qo'lingdan uchib ketib yiqiladi-ku!

155-mashq. Gaplarni o'qing. Nuqtalar o'rniga mos yuklamalarni qo'yib ko'chiring.

1. Akram oshxonaga kirib, qaynab turgan choynakni ko'r-di... , bor ovozda baqirdi. 2. – Ona qizim, senga chiroyli tuflicha olib keldim, – dedi dadasi, – qani kel, kiygizib ko'raylik... ? 3. Axir senga sig'mayapti-... ! – dedi dadasi. 4. Erkinoy nimalarning suratini chizyapsan? Qani ko'ray-...? 5. – Oyijon, opam o'rtog'i bilan o'ynarkan-... , men ham Barno bilan birga o'ynayman-... ?

156-mashq. So'zlarni o'qing. So'zlarni jadvalga to'g'ri joylashtiring.

Lekin, keldi-da, sayin, ammo, va, ham, sen-mi, bordi-ku, biroq, hattoki.

Ko'makchilar	Bog'lovchilar	Yuklamalar

157-mashq. *Har bir so'zning qaysi so'z turkumiga kirishini aniqlang. So'zlarni ikki guruhga ajratib yozing.*

1. Mustaqil so'zlar.
2. Yordamchi so'zlar.

Besh, chunki, ammo, daryo, tez, chiroyli, yashil, sekin, men, biz, keldik, go'zal, bepoyon, va, ham, kichkina, Vatan, bulbul, biroq.

Savol va topshiriqlar

1. *Qaysi so'zlar ko'makchilarga kiradi?*
2. *Bog'lovchilarni ayting. Misol keltiring.*
3. *Yuklamalarga misollar keltiring.*

SODDA GAP

Gap tugallangan mazmun bildiradi. Gap soʻzlardan tuziladi. Gapda soʻzlar mazmun jihatidan oʻzaro bogʻlanadi. Gapning birinchi soʻzi yozuvda bosh harf bilan yoziladi.

1-mashq. Oʻqing. Matnda nechta gap borligini aniqlang.

MEN KIM BOʻLMOQCHIMAN?

Dunyoda turli kasb-hunarlar koʻp. Bu ikki soʻz mazmun va mohiyat jihatidan bir-birini toʻldirib turadi. Kasb – ish-faoliyatning maʼlum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan biror turi, sohasi.

Hunar – kishidan muayyan tayyorgarlik talab qiladigan, tirikchilikning asosiy manbai hisoblangan mashgʻulot.

Mustaqillik tufayli milliy xalq hunarmandchiligiga katta eʼtibor berilmoqda. Hunarni har bir oʻgʻil-qiz yoshligidan egallashi lozim.

2-mashq. Berilgan soʻzlar ishtirokida gaplar tuzib yozing.

1. Boshlanadi, bahor, erta, Oʻzbekistonda. 2. Yomgʻir, bahorda, yogʻib, turadi, tez-tez. 3. Uygʻonadilar, tez, oʻsimliklar. 4. Fevral, oyida, gullaydi, bodom, va, oʻrik. 5. Isiy, boshladi, kunlar.

Har bir **gap** biror maqsad bilan aytiladi. Gaplar *xabar, so'rash, buyruq, maslahat* mazmunini bildiradi.

Xabar mazmunini bildirgan gap **darak gap** deyiladi. Yozuvda darak gapning oxiriga nuqta (.) qo'yiladi.

So'rash mazmunini bildirgan gap **so'roq gap** deyiladi. Yozuvda so'roq gapning oxiriga so'roq belgisi (?) qo'yiladi.

Buyruq, maslahat, iltimos mazmunini bildirgan gaplar **buyruq gaplar** deyiladi. Kuchi his-hayajon, quvonch, ajablanish bilan aytilgan gap **his-hayajon gap** deyiladi. Yozuvda buyruq, his-hayajon gaplarning oxiriga (.) nuqta yoki undov (!) belgisi qo'yiladi.

3-mashq. *O'qing. Gaplarni quyidagi tartibda yozing.*

1. Darak gap. 2. So'roq gap. 3. Buyruq, his-hayajon gaplar.

1. Buvim Farg'ona shahrida turadilar. 2. Qushlarni asrang o'quvchilar! 3. Sen ta'tilda qanday kitoblar o'qiding? 4. Maktab mulkini ko'z qorachig'idek asrash kerak! 5. Bahorda daraxtlar kurtak chiqara boshlaydi. 6. Nasiba opang qaysi kollejga o'qishga kirmoqchi?

4-mashq. *O'qish kitobidan 4 ta darak gap yozing. Gaplar qanday mazmun bildirishiga diqqat qiling.*

GAPNING BOSH VA IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLARI

Ega va kesim gapning **bosh bo'lagidir**. Gapning kim yoki nima haqida aytilganini bildirgan bo'lak ega deyiladi. Ega *kim?, kimlar?, nima?, nimalar?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Masalan: *Qir-adirlarda lolalar qip-qizil bo'lib ochildi.*

Ega haqida nima deyilganini bildirgan gap bo'lagi **kesim** deyiladi. Kesim *nima qildi?, nima qilyapti?, nima qiladi?, nima qilmoqchi?* kabi so'roqlarga javob beradi.

Masalan: *Daraxtlar oppoq bo'lib gulladi.*

Ega bilan kesim o'zaro bog'lanadi va **gap** hosil qiladi.

Ega va kesimdan boshqa bo'laklar **gapning ikkinchi darajali bo'laklaridir**. Masalan: *Kunlar kundan-kun isiy boshladi.*

5-mashq. *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq berib, ular gapda qanday bo'lak ekanini aniqlang.*

1. Osmonda **bulut** ko'rinmaydi. 2. Atirgulning yoqimli hidi kishiga huzur **bag'ishlaydi**. 3. Kapalaklar **guldan-gulga qo'nib** yayraydilar. 4. **Bulbul** juda chiroyli sayraydi. 5. Bulbul gulzor atrofida uchib yurishni yaxshi **ko'radi**. 6. **Oq va pushti** atirgul may oyida ochiladi.

6-mashq. *So'zlarni o'qing. Gaplar tuzib yozing.*

Vazifa, ko'chat, bahor, shabada, navbatchi, shaftoli, tut, olma.

7-mashq. *Matnni o'qing, undagi gaplarning chegarasini aniqlang. Matnga sarlavha toping. Gap bo'laklarini tahlil qiling.*

Nasiba yo'lda ketayotganida yarador yotgan qushchani ko'rib qoldi uni qo'lga olib erkalab so'ng uyiga olib kelib yuvib-tarab parvarish qildi qushcha sog'ayib ketdi u Nasibaga o'rganib qoldi «chirq-chirq» deb erkalanadigan bo'ldi mehrlil bo'lish yaxshi.

GAPNING UYUSHIQ BO‘LAKLARI

Gapdagi bir xil so‘roqqa javob bo‘lgan bo‘laklar **uyushiq bo‘laklar** deyiladi. Uyushiq bo‘laklar sanash ohangi bilan o‘qiladi, yozuvda ular orasiga vergul (,) qo‘yiladi. Masalan: *Quyosh, havo, tiniq suv bizning yaqin do‘stimiz.*

8-mashq. O‘qing. Ajratilgan so‘zlarni sanash ohangi bilan o‘qing. Gap bo‘laklarining tagiga chizing.

1. Tog‘dan kelar **pildirab**,
Ariqlarda **shildirab**.
Muzday, tiniq, zilol suv,
Simob kabi o‘ynab u.
2. Bahor keldi elimizga,
Ko‘m-ko‘k bo‘ldi **bog‘, dala**.
Sevinch to‘lib dilimizga,
Terib keldik **gul-lola**.

9-mashq. She‘rni o‘qing. Ko‘chiring. Uyushib kelgan so‘zlarga savol bering, ularni belgilang.

K. Turdiyeva

BIZ UCHIRGAN VARRAKLAR

Juda-juda uzoqqa,
Quyosh qizdirgan yoqqa –
Osmonga **uchib ketdi**,
Bulutni **teshib ketdi**.

Topmoq mumkin **har yerdan**,
Tog‘dan, osmondan, qirdan,
Tom boshidan, gohida
Ulkan daraxt shoxidan.

Keling, o'rganing bizdan,
Bilib olasiz tezda,
Shokildasi, gir-gir,
Shox tashlashlarin sirin.

10-mashq. *O'qing. Uyushiq bo'laklarni aniqlang. Ularga so'roq bering, qanday bo'laklar uyushib kelganligini ayting.*

KO'CHADA YURISH ODOBI

Ko'chada, jamoat joylarida yurishda ehtiyotkorlik kerak.

Sayr qilish yoki sayohatga borish – yaxshi odat. Sayr va sayohatda odam ko'p narsani ko'radi, yaxshi odamlar bilan uchrashadi. Ulardan shahar, qishloqlarimiz haqidagi yangiliklarni, qiziq voqea va hodisalarni eshitadi.

11-mashq. *O'qing. Ajratilgan so'zlarga bog'langan uyushiq bo'laklarni aniqlang.*

BILASIZMI?

Suv otuvchi baliq. U uchib ketayotgan chivin va pashshalarni **otib**, tushirib yeydi. Suv otuvchi baliq dengizlarning Hindiston, Indoneziya va Shimoliy Avstraliya **qirg'oqlaridagi** sayoz joylarida tarqalgan.

12-mashq. *Gaplarni o'qing va ko'chiring. Berilgan gaplarda fikr kimga qaratilgan?*

1. – O'g'lim, haddan ortiq hazildan saqlan, qadr-qimmating ketadi, huda-behuda qichqirib kula berma, savlating ulug'vorligini yo'qotasan.

2. – Bobojon, laylaklar qishlog'imizga yana kelarmikan?

3. – Taqsir, men yurtigingizda bir mehmonman.

4. Bolalar! Tarbiya shunday bir aziz narsa-ki, u insonni hamma vaqt to'g'ri yo'ldan olib boradi.

13-mashq. *Matnni o'qing va ko'chiring.*

OCHKO'ZLIK

Bir bola ko'chada yig'lab o'lturub edi. O'tub-ketub turgon kishilardan biri: «O'g'lim, sanga nima bo'ldi? Na uchun muncha yig'larsan?» – deb so'radi. Bola: «Bir tiyin aqcham bor edi, yo'qotib qo'ydim. Shuning uchun yig'larman» – dedi. U kishining bolaga rahmi kelib: «Mana, o'g'lim, aqchang yo'qolgan bo'lsa, man sanga boshqasini berurman», – deb cho'ntagidan bir tiyin aqcha chiqorub berdi. Bola aqchani olub yana avvalgidan ortuq yig'lamoqqa boshladi. Ul kishi: «Dag'i nimaga yig'larsan?» – desa, bola: «Oh otajon! Agar o'z aqcham yo'qolmagan bo'lsa edi, hozir aqcham ikki tiyin bo'lur edi», – dedi.

A. Avloniy

Ko'zing och bo'lmasun, o'g'lim ko'zing och.

Qanoatsiz kishini uxlatub qoch.

14-mashq. *O'qing. Matn qanday gaplardan tuzilgan?*

UMR MAZMUNI

Rivoyat qilishlaricha, Luqmoni Hakim ikki do'stni o'rtaga olib so'radilar: – Xo'sh, siz umringiz mazmunini nimalar bilan boyitdingiz?

– Men yaxshi farzand o‘stirdim, yetim-nochorlarga yordam berdim, tinimsiz mehnat qildim. Luqmoni Hakim uning sherigiga yuzlanib: – Bolam, siz umringizda qanday savob ishlarni qildingiz?

U odam yerga qarab:

– Mayxona, choyxonalarda umrimni bekor o‘tkazganman, – deb javob berdi.

Luqmoni Hakim boshini chayqab:

– Essiz umr! – dedilar.

QO‘SHMA GAP.

Qo‘shma gaplarning bog‘lovchilar bilan va bog‘lovchisiz bog‘lanishi

Ikki va undan ortiq sodda gaplarning birikishidan hosil bo‘lgan gaplar **qo‘shma gaplardir**.

Qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar *va, ammo, yoki, lekin, shuning uchun, chunki* kabi bog‘lovchilari, shuningdek talaffuzda ohang (yozuvda esa tinish belgilari) yordamida o‘zaro bog‘lanadi.

15-mashq. Gaplarni o‘qing. Gaplarni bir-biriga bog‘lashga xizmat qilayotgan vositalarni aniqlang.

1. Nargiza har kuni kechqurun soat o‘n ikkilargacha oynayi jahonni tomosha qilar va ertalab zo‘rg‘a uyg‘onardi.
2. Qor qalin yog‘di, shuning uchun qushlar donsiz qoldilar.
3. Qor ketma-ket yog‘ib, hammayoq qalin qor bilan qopladi, lekin bolalarni sovuq hech ham qo‘rqita olmadi.
4. O‘z o‘g‘lonlarining jasoratini Vatan hech qachon unutmaydi va avlodlar mustaqil O‘zbekistonimizni himoya qilishda ular jasoratidan o‘rnak oladilar.
5. Otasi o‘g‘liga hech

100

so'z qotmadi, ammo ishning ko'zini amalda ko'rsatmoqchi bo'ldi.

Lekin, ammo, shuning uchun, chunki, biroq bog'lovchilaridan oldin vergul (,) qo'yiladi. Sodda gaplar bog'lovchisiz bog'lansa, ular orasiga ko'pincha vergul (,) qo'yiladi.

16-mashq. *Gaplarni o'qing va ko'chiring. Qo'shma gaplarni bog'lashga xizmat qiluvchi vositalar ro'yxatini tuzing.*

1. Juda qadim zamonlardan boshlab odamlar dengiz va okeanlarda suzadilar va noma'lum yerlarni qidirib topganlar.
2. O'rmonda sayr qilib yurgan kishi baland-baland adl daraxtlarni ko'rib zavqlanadi, lekin ana shu yashil tabiat mo'jizalari bo'lajak daftar ekanliklarini xayollariga ham keltirmaydi.
3. Rafael Santi asarlari nafaqat Italiya san'ati, balki jahon san'atining o'lmas merosi sifatida tanilgan.

17-mashq. *Berilgan sodda gap juftlarini shuning uchun, lekin, va, biroq bog'lovchilari yordamida bitta gapga birlashtiring.*

1. Kech bo'ldi. Qorong'u tushdi. 2. Juda sovuq bo'ldi. Qor yog'madi. 3. Ta'til boshlandi. Chorak tugadi. 4. Ra'no erta turdi. Oyisiga yordam berdi. 5. O'zbekistonlik tennischi musobaqada g'olib chiqdi. Ko'p tayyorgarlik ko'rdi.

18-mashq. *O'qing, sodda va qo'shma gaplarni aniqlang.*

1. Erkin yaxshi o'qiydi. 2. O'rmonda maymunjon, qo'ziqorin va qushlar ko'p ekan. 3. Nasibaning onasi jamoa xo'jaligi fermasida ishlaydi. 4. Men qorbo'ron o'ynadim, shuning uchun isib ketdim. 5. Sovuq shamol esib qor yog'moqda.

KO'CHIRMA GAP

Birovning aynan keltirilgan gapi **ko'chirma gap** deyiladi. Ko'chirma gap muallif gapi bilan birga keladi.

Muallif gapi ko'chirma gapdan oldin kelsa, u ikki nuqta (:) bilan ajratiladi va ko'chirma gap qo'shtirnoq («») ichiga olinadi.

19-mashq. Ko'chirma gaplarni o'qing. Ularning yozilishiga diqqat qiling.

«Yuring buva, siz bug'ularni ko'rgan joyga boramiz, men ham bir ko'ray», – dedi bola.

«Ular axir bir joyda turmaydi-da», – javob berdi buvasi.

«Biz izidan boramiz. Ularning izidan uzoq-uzoqlarga izlab boraveramiz. Ularga ko'zimizning qiri tushdi deguncha, qaytamiz. Shunda, ular odamlar tegmasligini bilib oladi», – dedi bola.

20-mashq. O'qing. Muallif gapi va ko'chirma gaplarni aniqlang. Tinish belgilarini ishlatilishiga e'tibor bering.

HIKOYAT

Dono keksadan so'radilar:

«Ona haqini nima bilan ado etsa bo'ladi?»

Dono bunday javob berdi:

«Dunyoning yetti xazinasini onang oyoqlari ostiga to'kkaningda ham bu boyliklar onang bergan oq sutiga arzimaydi. Onangni opichlab Yer sayyorasini yetti marta aylantirib chiqqaningda ham seni bag'rida ko'tarib

yurganiga teng bo'lmaydi, hatto boqiy umr sharbatini topib ichirganingda ham onang seni dunyoga keltirgani haqiga o'tmaydi, chunki u seni jonidan qon berib yaratdi va bir parcha etligingdan qudratli insonga aylantirdi». Odamlar dononing gapidan hayajonlanib yana so'rashdi:

«Ona haqini uzib bo'lmas ekan-da»?

«Haq gapni aytdinglar, – dedi dono. – Ona haqini uzish uchun uning dilini hech qachon og'ritmaslik kerak. Ona haqi faqat onani rozi-rizo qilish bilan uziladi».

Ko'chirma gap so'roq yoki undov gaplar bo'lsa, so'roq va undov belgilari (!) gapning oxiriga qo'yiladi va so'ngra qo'shtirnoq (« ») yopiladi. Ko'chirma gap darak gap bo'lsa, nuqta (.) qo'shtirnoqdan keyin qo'yiladi.

21-mashq. Gaplarni o'qing. Berilgan gaplardagi muallif gapi va ko'chirma gaplarni aniqlang.

1. Bir kuni yilqibonlar: «Shu baytal har kuni mozorga qarab ketadi. Uni poylamoq kerak. Mozorga borib nima qiladi?»-dedilar. 2. Podsho nonvoyni oldiga chorlab: «Xo'sh, kerakli narsalarning hammasi tayyormi, bo'lmasa, ishni boshla!» – debdi. 3. Alisher Navoiy bobomiz kulgu haqida bunday deganlar: «Kulgu o'z me'yoridan oshib ketdimi, bundan yig'lagan ancha yaxshiroqdir. Gul g'unchasi kulgani uchun uni shamol uchirib ketadi. Chaqmoq esa kula-kula pastlashadi. Odobli odam kulish uchun og'iz ochmaydi».

22-mashq. *Nuqtalar o'rniga ko'chirma gaplar qo'yib ko'chiring.*

1. Ertalab ona o'g'liga: « ... », – dedi
2. O'qituvchimiz Ra'no opa: «... ?» – deb so'radilar.
3. Dono xalqimiz: « ... », – degan.
4. Mezbon mehmonlarga: «... », – dedi.

Savol va topshiriqlar

1. *Sodda gapga ikkita misol keltiring.*
2. *Gapning bosh bo'lagi va ikkinchi darajali bo'laklari deb nimaga aytiladi?*
3. *Gapning uyushiq bo'laklari deb nimaga aytiladi? Misol keltiring.*
4. *Undalmaga misol keltiring.*
5. *Qo'shma gapning bog'lovchilarini ayting.*
6. *Ko'chirma gapga ikkita misol ayting.*

O'QUV YILI MOBAYNIDA O'TILGANLARNI TAKRORLASH

1-mashq. Berilgan so'zlarga *-la, -chi, -siz, -li, -zor, -kor, -dor, -bon* qo'shimchalaridan mosini qo'shib, yangi o'zakdosh so'zlar yasang va yozing.

G'alla, oq, unum, mazmun, rang, sut, sir.

Hosil bo'lgan o'zakdosh so'zlardan qatnashtirib 3 ta gap tuzing.

2-mashq. Quyidagi otlarga so'z yasovchi qo'shimchalar qo'yib so'zlar tuzing. So'z yasovchi qo'shimchalarni belgilang.

Chorva, osh, mehnat, maktab, ov, ish, vatan, olma.

3-mashq. O'qing. Nuqtalar o'rniga kerakli so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shib ko'chiring.

1. Salomat... tuman boy... 2. Siz, o'quv...lar davlat mulkining saqlanishiga ko'maklashishingiz kerak. 3. Navbat... xonani shamollatdi. 4. Aziz teng...im, men sevimli jurnalimiz «Gulxan»ga obuna bo'ldim. 5. Onam bizga juda mehri...lar. 6. O'quvchilar bog'da bog'... ga yordam berdilar.

4-mashq. She'rni ifodali o'qing. She'rdagi otlarni aniqlang.

QUSH TILI

Qushlar, hey, ketmang uzoq,
Qo'ymayman sizga tuzoq.
Cho'chimang hoy chumchuqlar,
Laylag-u chug'urchiqlar,
Ko'k qarg'a-yu, zarg'aldoq, ...

... Suqsur, oqqush, tustovuq,
Mendan qochma hoy burgut,
Do'stlashaylik, qarchig'ay,
Kaklik, to'ti, bedana,
Sepay tariq, sedana.
Keling, ha, sirlashaylik,
Keling, ha, tillashaylik.

5-mashq. *She'rni ko'chiring, otlarning tagiga chizing.*

Oybek

AHMADJON BOG'BON

Ahmad o'zi bir qarich,
Hammamizga u tanish.
Qilig'i, so'zi yaxshi,
Suygani o'qish va ish.

Maktabdan kelgan zamon,
Oladi jajji ketmon.
Terlab-pishib yer chopar,
Bizning kichkina bog'bon.

Bog'da olma-yu, anjir,
Toklar, noklar xilma-xil.
Ular tagin yumshatib,
Suv quyur jildir-jildir...

6-mashq. *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan otlarning nima uchun bosh harf bilan yozilganini izohlang.*

1. **To'rtko'z** aqlli edi, uyga kelgan mehmonlarga huda-behuda tashlanmas edi. 2. Shu payt o'qituvchi **Qahhor aka** va boshqa o'quvchilar ham yetib kelishdi. 3. **Nodir** o'ylamasdan ish qilib qo'yganini bilib afsuslandi. 4. **Xurshid** samolyotni qalin qog'ozdan yasabdi. 5. **Farhod** maktabdan kelib **Mosh** va **Olaparni** chaqirdi. 6. Birinchi bo'lib **Tohir** va undan so'ng boshqa velosipedchilar marraga yetib keldilar.

7-mashq. *Berilgan so'zlardan sodda gap tuzib yozing. Eganing tagiga bir, kesimning tagiga ikki chiziq chizing.*

Quyosh, bahor, o'qituvchi, chiqdi, o'quvchi, keldi, o'qitadi, o'qiydi, davolaydi, tikuvchi, shifokor, tikadi.

8-mashq. *So'zlarni o'qing, ularga so'roq bering. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar ishtirokida to'rtta gap tuzing va yozing.*

O'quvchi, mehmon, shoir, turna, **tikuvchi,** qush, **quruvchilar,** olmazor.

9-mashq. *O'qing. Berilgan so'zlar qaysi fe'l zamoniga mansubligini ayting.*

Terdi, kelyapti, chizmoqda, bormoqchi, tushdi, olmoqchi, o'qimoqda.

So'zlardan qatnashtirib gap tuzing va yozing.

10-mashq. *Eslat, gapir fe'llariga-moqchi qo'shimchasini qo'shing va tuslang. Ularni yozib, shaxs-son va zamon qo'shimchasini belgilang.*

11-mashq. O'qing. Fe'llarni topib, ularning zamonini aniqlang.

P. Mo'min

O'ZIB KETDI VARRAGIM

Uchganida varragim,
Zavqqa to'lar yuragim.
Keng osmonda yelkanday,
Suzib ketdi varragim.

Uchganida gohi-goh,
Har tomonga tashlar shox.
Talay varraklardan –
O'zib ketdi varragim.

Rosa uchdi osmonda,
Lekin qoldim armonda:
Kuchli shamol turganda,
Suzib ketdi varragim...

12-mashq. Ayt, kuzat so'zlariga hozirgi zamon fe'li qo'shimchasini qo'shing va tuslang. Ularni yozib, shaxs-son va zamon qo'shimchasini belgilang.

13-mashq. O'qing. Ajratilgan fe'llar nechta so'zdan iborat, ularga so'roq bering va tagiga chizing.

1. Qorong'i tushib qolganini ham sezmay **qoldim**. 2. Uning qop-qora ko'zmunchoqdek dum-dumaloq ko'zlari **yumilib ketardi**. 3. Kaptar endi ochlikka **chiday olmadi** shekilli, tez-tez yeya boshladi. 4. Buvim ko'zoynagi ustidan **qarab qo'ydi**.

5. Men o'z odatimcha indamay **chiqib ketdim**. 6. Kaptarimning oq-qizil aralash rangiga qarab, yana **o'ylay ketdim**.

14-mashq. *O'qing. Sifatlarni aniqlang, tagiga chizing.*

1. Ra'no maktabda a'lo baholarga o'qiydi. 2. Toshkent shahrida katta-katta zavodlar bor. 3. Hammayoq oppoq qor bilan qoplandi. 4. Biz avval ko'p qavatli binoda yashardik. 5. Mohiraning opasi chiroyli ko'ylaklar tikadi.

15-mashq. *Ko'chiring. Sifatlarning tagiga chizing.*

1. Abdulla Qahhor iste'dodli bo'lishi bilan birga, havas qilarli darajada tirishqoq, mehnatsevar, ko'p kitob mutolaa qiladigan inson edi. 2. Akvarel – rassomlik san'atida ishlatiladigan eng ommabop bo'yoqlardan biri. 3. Sinfimizda O'zbekiston Respublikasi Davlat Konstitutsiyasiga bag'ishlangan tarbiyaviy soat bo'ldi.

16-mashq. *Berilgan so'zlarga mos sifat yasovchi qo'shimcha qo'shib, yangi so'z hosil qiling. Ulardan qatnashtirib gap tuzing.*

Havo, vaqt, baho, gaz, farq, to'lqin, xato, o'rin.

N a m u n a: bahavo, to'lqinsimon

17-mashq. *Qavslarni tushirib, qo'shma sifatlarni qoidaga muvofiq ko'chirib yozing.*

Och(ko'z), kul(rang), erk(sevar), tumanlar(aro), kam(gap), osmon(o'par), qimmat(baho), ish(bilarmon), rahm(dil).

18-mashq. *Qo'shma sifatlarni ko'chiring. Ular qatnashgan ikkita gap yozing.*

Sofdil, o'zbilarmon, siyohrang, tezyurar, guruhlararo, ommabop.

19-mashq. *Nuqtalar o'rniga berilgan sanoq sonlarga -inchi, -nchi qo'shimchasini qo'shib, birikmalarni o'qing. Ulardan gap tuzib, yozing.*

Qirq yetti... maktab, bir yuz olti... avtobus, o'n bir... uy, yigirma... mart, to'qqiz... sinf, uch... qavat.

20-mashq. *Sonlarni raqam bilan yozib, o'zi bog'langan so'z bilan birga yozing.*

1. Arxeologik tadqiqotlar tasdig'iga ko'ra Toshkent ikki ming yildan oshiqroq tarixga ega. 2. Toshbaqalar juda uzoq, ko'p turlari yuz yil va undan ko'proq yashaydi. 3. Tramvay o'n to'qqizinchi asrning o'ttizinchi-qirqinchi yillarida paydo bo'ldi. 4. Eng yirik pingvinlarning bo'yi sakson santimetr, vazni esa yigirma-qirq kilogrammgacha yetadi.

21-mashq. *O'qing. Sifatlarni ko'chiring.*

Jabbor Razzoqov

QOR YOG'MOQDA

Sokin tun. Qor yog'yapti. Bolalarning beg'ubor qalbi to'lib-toshib oqayotgan daryoday jo'shqin. Bahorda ko'm-ko'k o'tloqlarda oppoq kapalaklarni ushlamoqchi bo'lganday har bir zarrachaga talpinishadi. Qanday zavqli-a! Ona tabiat shunday go'zal-ki, uning chiroyi hech ham tugamaydi.

Ana, qorning bir parchasi qizchanning oppoq hovuchiga ohista qo'ndi. Quvonchdan uning yonoqlari shunday yashnab ketdiki, bu daqiqalar tasviriga til ojiz. Qor shunday beg'ubor qizchanning qo'liga tushganidan birdan erib ketdi. Tip-tiniq shudring tomchisiga aylandi. Bir zumdayoq hammayoq oq choyshabga burkandi. Haligina qor zarrachalariga intilayotgan bolalar endi undan hovuchlab-hovuchlab olib, dumaloqlab, qorbo'ron o'ynashdi.



22-mashq. *Berilgan so'zlarda fe'l yasovchi qo'shimchalarni belgilang.*

Ko'kardi, ishladi, bog'ladi, so'zladi, gapirdi.

23-mashq. *Berilgan fe'llarga so'z qo'shish bilan fe'llarni yasang va beshta gap tuzing.*

So'z, ol, to'ldir, egalla, toza, ek, qo'y, chiz.

24-mashq. *O'qing. Avval holat ravishini, keyin payt ravishlarini ko'chirib yozing.*

Bittalab, har kuni, kecha, bugun, darrov, birdan, ertandin, allaqachon, sekin, ilgari, tasodifan.

25-mashq. *Matnni o'qing. Qanday?, qanaqa? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni toping va ko'chiring.*

Meksikada bir ajoyib gul o'sadi. U bir kunning o'zida turli rangga kiradi. Tongda oppoq, ertalab qizil, tush paytida qip-qizil, kechqurun qora, tunda oppoq bo'ladi. Yana bir sir, bu gul faqat oppoq bo'lganda – tongda va tunda xushbo'y hid taratadi.

26-mashq. *Matnda ko'rsatilgan ranglarga savol bering. Matnni daftaringizga ko'chirib oling.*

QUSH

Bu qushning qanotlari va dumi qora, qanotlarida katta-katta oq va sariq dog'lari bor. Tumshug'i qizil yo'l bilan o'ralgan. Jig'ildonining ikki yoni oq va jigarrang, boshi – sariq. Boshining tepasi va orqasi kulrang. Qorni jigarrang.

27-mashq. *Bo'yoqlar rangini sanab daftarga yozing. Shu so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.*

28-mashq. *Quyidagi so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.*

N a m u n a: *Bizning ko'chamizda baland bino qurilmoqda.*


Baland bino, kichkina mushuk, achchiq qalampir.

29-mashq. *Matnni o'qing. Sonlarni o'qib s'oz bilan yozing.*

O'ZBEKISTON

O'zbekistonda Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat, 100 dan ortiq shahar bor. Bu o'lka juda ham ko'hna. Uning poytaxti – Toshkent 2000-yilligini, Samarqand, Buxoro, Xiva esa 2500-yilligini nishonladi, 2001-yilda esa Termiz shahrining 2500-yilligi nishonlandi.

1991-yil 31-avgust kuni O'zbekiston mustaqil deb e'lon qilindi va 1-sentabr Mustaqillik kuni sifatida nishonlanadigan bo'ldi.



30-mashq. *Gaplarni ko'chiring, sifatni aniqlang.*

1. Yaqinda O'zbekistonda eng yosh pahlavonlar o'rtasida musobaqa bo'ldi.

2. Yaxshi gap odamni ko'nglini og'ritmaydi.

3. Dildora katta bo'lganda shifokor bo'lishni orzu qiladi.

31-mashq. *Quyidagi she'rni o'qing, sifatni toping. She'rni yodlang.*

Oq bulut, oppoq bulut,
Senga kelar havasim.
Senga yetolmas burgut,
Soldim men senga rasm.

32-mashq. *Sonlarni toping, ularni raqamlar bilan yozing.*

1. Sakkizinchi dekabr – O'zbekiston Davlat Respublikasining Konstitutsiyasi kuni.

2. Abdulla Qahhor bir ming to'qqiz yuz yettinchi yilda tug'ilgan.

3. Maktabimizda bir yuz ellik nafar ikkinchi sinf o'quvchilarini «Kamalak» tashkilotiga qabul qilish tadbiri bo'lib o'tdi.

33-mashq. *Gaplarni ko'chiring. Sonlarning gapdagi vazifasini aniqlab tagiga chizing.*

NOL

Sizda beshta olma bor edi. Shundan ikkitasini ukangizga, ikkitasini singlingizga bersangiz va bittasini o'zingiz yesangiz, sizda nechta olma qoldi, degan savolga, menda olma qolmaydi, deb javob berasiz. Hech qachon, menda nolta olma qoldi demaysiz. Lekin nol ham aslida

son hisoblanadi. Shunday qilib, nol narsalarni sanashda uchratish mumkin bo'lgan sonidir.

34-mashq. *Ertakni o'qing. Mazmunini so'zlab bering. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar qaysi so'z turkumiga kirishini ayting. Shu so'zlarni daftaringizga yozib oling.*

BOYO'G'LI

Qadim o'tgan zamonda bir **Rixsiboy** degan boy yashar ekan. Shunday boy ekan-ki, butun **bir** viloyat xalqini boqishga boyligi yetar ekan. Ammo u **xasis** va **ziqna** ekan. U boyning yakka-yu **yolg'iz** bir o'g'li bo'lgan ekan. U ham ziqnalikda otasidan qolishmas ekan. Avom xalqqa soliq solar, soliqni o'z vaqtida to'lamaganlarni qamchilab uylarini xonavayron qilarkan. Xalq undan juda **qo'rqib**, «Boy o'g'li kelyapti», – deyishsa, yosh-yalanglar uylariga berkinib olisharkan. Bir kuni bu zulmdan norozi bo'lgan keksalar qo'l ochib qarg'ashibdi:

– Xudoyo, bizni vayron qilsang, sen o'zing vayron xarobalarda yashagin, hech yorug'likni ko'rmagin, deyishibdi.

O'sha kuniyoq boy o'g'li qush bo'lib **uchib ketibdi**. U vayronalar, xarobalarga in qurib, kechasi qorong'ulikda uchar, nola qilib ovoz chiqararkan. Boyning o'g'li, ana shunday «**Boyo'g'li**» bo'lib qolgan ekan. Shuning uchun aytadilar-da, «duo olgan omondur, qarg'ish olgan yomondur».

35-mashq. *Savollarni o'qing. Ularga og'zaki javob bering. Javoblaringizni daftaringizga yozib oling.*

Savollar

1. *Jamoat transporti bekatlarida qanday qoidalarga rioya qilish kerak?*
2. *Yo'lni qanday kesib o'tish kerak?*
3. *Avtobus, trolleybusning qaysi tomonidan kesib o'tish kerak?*
4. *Tramvaydan tushgandan keyin nima qilish kerak?*
5. *Uning qaysi tomonidan kesib o'tish kerak?*


36-mashq. *Rasmni kuzating. Savollarga javob bering. «Uy hayvonlari» nomli hikoya tuzing va daftaringizga yozib oling.*



Savollar

1. *Bahor kelishi bilan hayvonlar hayotida qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi?*
2. *Bahorda odam hayvonlar haqida qanday g'amxo'rlik qiladi?*
3. *Uy hayvonlari odamga qanday foyda keltiradi?*
4. *Sigir, echki, qo'y, tuyalardan qanday mahsulotlar olinadi?*

37-mashq. *Rasmni kuzating. Rasm va savollardan foydalanib, «Qurilishda» mavzusida hikoya tuzing va daftarinigizga yozib oling.*



Savollar

1. *Qurilishda ko'targich kran qanday ishlarni bajaradi?*
2. *Qurilishda yana qanday mashinalar odamlar xizmatini yengillashtiradi?*
3. *Qanday quruvchilik kasblarini bilasiz?*
4. *Q'isht teruvchi nima ish qiladi?*
5. *Suvoqchi va duradgor-chi?*

38-mashq. Savollarni o'qing, rasmlarni diqqat bilan kuzating. Savollarga yozma javob bering.

Savollar

1. Sizga qanday kasb yoqadi?
2. Qachon ishga jiddiy kirishish kerak?
3. Buning uchun nima qilish kerak?



39-mashq. Rivoyatni o'qing. Qo'shma gaplarni aniqlang, bog'lovchilarning tagiga chizing.

ANJIR BARGI

Aytishlaricha, qadim zamonda bir Rahmon degan avliyo kishi bo'lgan ekan. U hamma kishilarga yaxshilik, ezgulikni ravo ko'rarkan. Nochor kishilardan yordamini ayamas ekan, ammo hammada ham bir dushman bo'lgani kabi, avliyo Rahmonning ham g'animlari bor ekan. Uning dushmanlari xalqqa qilayotgan himmatini ko'ra olmay g'ayirlik qilarkan.

Kunlardan bir kuni Rahmon salovat aytib kelayotsa, bir tarafdin g'anim-dushmanlar uni o'ldirmoqchi bo'lib, orqasidan quvibdilar. Rahmon qochib ketayotib bir anjir oldidan chiqib qolibdi va darhol anjir ostiga yashirinibdi. Anjir barglarini yana ham kengaytirib, avliyoni yashiribdi. Dushmanlar uni ko'rmay, o'tib ketibdilar. Avliyo Rahmon anjir ostidan chiqayotib:

– Sen meni dushmanlarimdan xalos qilding, endi sen gullamasdan birdaniga hosil tugavergin! – deb anjir tanasini silabdi. Shu-shu anjir gullamay meva tugadigan boʻlgan ekan.

40-mashq. Rivoyatni diqqat bilan oʻqing. Mazmunini soʻzlab bering. Kim?, kimlar?, nima qildi?, nima qiladi? soʻroqlariga javob boʻlgan soʻzlarni koʻchirib yozing.

JIYDA GULI

Rivoyatlarga koʻra, qadim zamonda bir podsho toʻsatdan kasal boʻlib qolibdi. Vazirlari har tomondan zoʻr tabiblarni olib kelib, koʻrsatibdilar, ammo birontasining aytgan dorisi kor qilmabdi. Podsho ulardan ranjibdi, oʻsha kuni kechasi uning tushiga bir chol kirib:

– Ey oʻgʻlim, sen dunyodagi eng shirin, xushboʻy gulni hidlashing kerak, – deb koʻzdan goʻyib boʻlibdi. Uygʻonsa, tushi ekan. Podsho darhol saroy ayonlarini chaqirib, tushida koʻrganlarini batafsil aytib beribdi.

– Dunyoda eng xushboʻy gulni topib kelinglar! – deb farmon beribdi.

Hamma har tarafga chopishibdi. Saroy bogʻida bogʻbonlik qilayotgan Ahmad ismli yosh yigit uzoq bir qishloqda Roʻzi bobo yashayotganini bilar ekan. Uning huzuriga borib, boʻlgan voqeani bayon qilibdi. Roʻzi bobo shunday debdi:

– Qoʻchqortogʻ yonbagʻrida bir tup jiyda bor. Uning gulidan olib borib, podshoga bergin! – debdi.

Yigit cholning aytganidek, jiyda gulini olib, saroyga ravona boʻlibdi. Ertasi kuni olib kelingan hamma gullarni

podshoga ko'rsatishibdi. Podsho gullarni hidlabdi, ammo bironyasi ham dardiga shifo berolmabdi. Shunda bog'bon Ahmad jiyda gulini podshoga beribdi. Podsho uni hidlagan ekan, bahri dili ochilib, darddan forig' bo'libdi. Sevinib ketgan podsho bog'bon yigitni o'ziga vazir qilib olibdi.

41-mashq. Matnni diqqat bilan o'qing. Matn mazmunini so'zlab bering. Bolalar qanday qilgan ishlaridan pushaymon bo'ldilar? Matndan to'rtta gap yozib oling, gapdagi ega va kesimni topib, ularni tagiga chizing.

PUSHAYMON

Mahalladagi Sodiq bilan Karim eng inoq do'st. Maktabga ham birga borishadi, o'yinni ham birga o'ynashadi. Afsuski, ular maktabda eng qoloq o'quvchilardan. O'yin deb uy vazifasini bajarishmaydi. O'qish desa qochishadi, agar futbol o'yini desa chopishadi. Qo'yib bersa nonushta ham qilmay erta azondan boshlab futbol maydonchasiga yetib borishadi. Otasining g'azabidan qo'rqmasa ular hatto shu maydonchada tunab qolishadi. Shunday kunlarning birida futbol o'ynab, qorong'i bo'lganini sezmay qolishdi. Tepilgan to'p maydon yonidan o'tib ketayotgan cholning oyog'iga tegdi. Sodiq bilan Karim tezda cholning oldiga borib unga yordam berishdi.

– UZR, otaxon, qorong'ida ko'rmay qolibmiz, kechiring, – deyishdi ular.

– Hechqisi yo'q bo'talarim, lekin shuni esda saqlang-ki, har bir ishning o'z vaqti, me'yori bo'ladi, – dedi chol va o'z yo'lida davom etdi.

Sodiq bilan Karim qilgan ishlaridan qattiq pushaymon bo'ldilar.

ISH QOG'OZLARI NAMUNALARI

ARIZA NAMUNASI

12-kasb-hunar maktabi
direktori A. Po'latovga
Mirobod tumani
Oltinko'l ko'cha, 5-uyda
yashovchi U. Karimovdan

ARIZA

Meni oshpazlik mutaxassisligi bo'yicha kasb-hunar maktabiga qabul qilishingizni so'rayman.

O'zim haqimda quyidagilarni ma'lum qilaman.

1. 1999-yil 13-noyabrda Toshkent shahrida tug'ilganman.

2. 12-maktabning 9-«a» sinfini tugatganman.

3. Millatim – o'zbek.

4. Oshpazlikka qiziqaman, palov, qozon kabob, somsa pishirishlarni bilaman.

5. Uy manzilim:

Toshkent shahar, Mirobod tumani, Oltinko'l ko'cha,
5-uy.

imzo, sana

TILXAT NAMUNASI

Mirobod tumani 100-maktab
direktori K. Usmonovga
100-maktab o'quvchisi
L. Kamolovdan

TILXAT

10-sentabr 2014-yil sanasida tishim og'riganligi sababli, maktabga kelmadim. Tish shifokori ko'rigidan o'tib, ma'lumotnoma taqdim etyapman.

sana, imzo

TARJIMAYI HOL NAMUNASI

TARJIMAYI HOL

Men, Maxmudova Gulnora Valiyevna, 19.03.1999-yilda Toshkent shahrida tug'ilganman. 2006-yil Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi 12-maktabning 1-sinfiga qabul qilindim. Hozir shu maktabning 9-sinfida o'qimoqdaman.

Otam – do'konda sotuvchi.

Onam – uy bekasi.

Ukam – 12-maktabning 5-sinf o'quvchisi.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani, 10-mavze, 10-uy, 10-xonadon.

imzo, sana

LUG'AT

A	G	L
Asal	gul	loviya
archa	go'zal	lagan
avtobus	gulzor	laylak
asfalt	gulxan	
B	H	M
buloq	havo	mahsi
bulut	hayot	Muhayyo
boyqush	hazil	mart
bolish	hamisha	marjon
beshek		mushuk
D	I	N
do'lana	in	nasl
dala	ish	non
dona	idish	
darvoza	ilgak	
darcha		O
E	J	ohak
Ergash	jang	olmos
eshik	jadval	osmon
F	K	P
fasl	kampir	patnis
fil	kaptar	paxta
fan	kumush	paxsa
	ko'chat	Q
	ko'cha	qo'lqop
		qum

qish
qosh
qush

R

rubob
ruxsat
rassom
rohat

S

soha
sihat
sahna
sahar
sahro
surnay

T

tariq
tish
toshbaqa
tesha
tarvuz
tabib

U

un
unum

ulug'
urf
usta

V

vaza
varrak
Vatan

X

xamir
xamirturush
xunob
xalq
xazon

Y

yaxshi
yodgor
yong'in
yo'lak

Z

zarra
zina
zanjir

G'

g'alla
g'o'za
g'altak

Sh

shahar
sham
shisha
sholg'om

Ch

chevar
chapak
chaqmoq

O'

o't
o'tin

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bolalar ensiklopediyasi. – T.: «Sharq» NMAK, 2009.
2. B. Ma'qulova, S. Matchon. Kitobim – oftobim. – T.: Abu Ali ibn Sino, 1996.
3. B. Ma'qulova, T. Adashboyev. Kitobim – oftobim. – T.: Abu Ali ibn Sino, 2002.
4. Z. Valiyeva, Y. Muhibov. – T.: Iqtisod alifbosi, 1996.
5. «G'uncha» davriy jurnallari.
6. S. Rizoyev. «Qaldirg'och». – T.: Kamalak, 1994.
7. «Gulxan» davriy jurnallari.
8. S. Fuzailov, M. Xudoyberganova, Sh. Yo'ldosheva. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. – T.: «O'qituvchi», 2014, 144 b.
9. R. Ikromova, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, D. Shodmonqulova. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. – T.: «O'qituvchi», 2013, 192 b.
10. «Odob – axloqga oid hadis namunalari». T.: «Fan», 1970.
11. T. Javliyev. «An'analar – hayot sabog'i» – T.: «O'zbekiston», 1992.
12. I. Jo'rabekov. «Yangi O'zbekiston – yangi qadamlar». T.: «O'zbekiston», 1994.
13. U. Maxkamov. «Axloq – odob saboqlari». – T.: «Fan», 1994.
14. A. Пўлатов. Ойбарчин чизган расм. – T.: «Ёш гвардия», 1985, 45 б.
15. A. Пўлатов. Мактабда холни ўрганиш. – T.: «Ўқитувчи» 1978, 76 б.

MUNDARIJA

TAKRORLASH	4
Uyushiq bo'lakli gaplar	4
Qo'shma gap. Qo'shma gaplarning <i>ammo, lekin, biroq</i> bog'lovchilari bilan bog'lanishi.....	6
SO'Z TARKIBI	18
O'zak va o'zakdosh so'zlar	18
So'z yasovchi qo'shimchalar.....	19
So'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalar	21
SO'Z TURKUMLARI	26
Ot – so'z turkumi	29
Otlarning kelishik qo'shimchalari bilan turlanishi	33
Otlarning egalik qo'shimchalari bilan tuslanishi	39
Sifat – so'z turkumi.....	41
Sifat darajalari	42
Sifatlarning yasalishi.....	45
Qo'shma sifatlarning yasalishi	46
Juft sifatlarning yasalishi	47
Son – so'z turkumi	51
Tartib va miqdor sonlar	53
Sonning ma'no jihatidan turlari. Sanoq son, dona son....	55
Sodda son, qo'shma son, juft son.....	57
Olmosh – so'z turkumi. Kishilik olmoshlari.....	59
Fe'l – so'z turkumi.....	64
Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar	68

Fe'l zamonlari	71
O'tgan zamon fe'li	74
Hozirgi zamon fe'li	75
Kelasi zamon fe'li	77
Fe'llarning yasalishi.....	80
Ravish – so'z turkumi	83
Ravishning ma'no jihatidan turlari. Holat ravishi	86
Payt ravishi.....	87
Ravishlarning yasalishi.....	88
Yordamchi so'z turkumlari.....	90
GAP	94
Sodda gap	94
Gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari	95
Gapning uyushiq bo'laklari	97
Qo'shma gap. Qo'shma gaplarning bog'lovchilar bilan va bog'lovchisiz bog'lanishi	100
Ko'chirma gap.....	102
O'QUV YILI MOBAYNIDA O'TILGANLARNI TAKRORLASH	105
ISH QOG'OZLARI NAMUNALARI	121
Ariza namunasi.....	121
Tilxat namunasi	122
Tarjimayi hol namunasi.....	122
LUG'AT	123
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	125

***Shahlo Axatovna Karimova,
Oybarchin Axatovna Maxmudova***

ONA TILI

*Imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab
va maktab-internatlarning 9-sinfi uchun darslik
(Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun)*

Muharrir *T. Nazarov*
Texnik muharrir *D. Salixova*
Badiiy muharrir *J. Gurova*
Musahhih *Sh. Ilhombekova*
Kompyuterda tayyorlovchi *E. Kim*

Original-maket «NISO POLIGRAF» nashriyotida tayyorlandi.
Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani, «Oq-Ota» QFY,
Mash'al mahallasi, Markaziy ko'chasi, 1-uy.
Litsenziya raqami AI №265.24.04.2015.

Bosishga 2015 yil 27 iyulda ruxsat etildi. Bichimi 70×90^{1/16}.
Ofset qog'ozi. «SHKOLNAYA» garniturasida. Kegli 14.
Shartli bosma tabog'i 8,0. Nashr tabog'i 6,4. Adadi 886 nusxa.
Buyurtma №15-554.


«O'ZBEKISTON» NMIU bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent sh., A. Navoiy ko'chasi, 30-uy.



Sotuvga chiqarish taqiqlanadi



ISBN 978-9943-4317-8-2



9 789943 431782